

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TABIIY FANLAR FAKUL'TETI

EKOLOGIYA KAFEDRASI

Raximova Gulxayo Inomjonovnaning

**NAMANGAN SHAHRINING EKOLOGIYASI VA UNI
OPTIMALLASHTIRISH**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Namangan – 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB: NAMANGAN VILOYATIDA TABIATNI MUHOFAZA QILISH VA UNDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	7
1.1. Tabiatdan foydalanish va tadqiq qilishni nazariy- metodologik asoslari.....	7
1.2. Namangan viloyati tabiatidan foydalanishning ekologik jihatlari.....	11
1.3. Shaharlar ekologiyasi va uni o`rganish dolzarbligi.....	16
II-BOB: NAMANGAN SHAHRINI EKOLOGIK HOLATI VA VAZIYATINI TO`G`RI BAHOLASH HAMDA TABIIY MUHITNI OPTIMALLATIRISH ZARURIYATI.....	25
2.1. Namangan shahrining tabiiy, ijtimoiy ekologik muammolari va ularning taxlili.....	25
2.2. Namangan shahrida tabiatdan oqilona foydalanishni optimallashtirish yo`llari.....	34
2.3. Namangan shahrini tabiiy ekologik nuqtai nazardan rayonlashtirish masalalari.....	40
2.4. Namangan shahrida ekologik xavfsizlikni ta`minlashning asosiy yo`nalishlari va istiqbollari.....	44
XULOSA.....	52
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI.....	54

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan olib borilayotgan jamiyat hayotining hamma sohalarini erkinlashtirishga qaratilgan ijtimoiy – iqtisodiy qayta qurish siyosati, mintaqalardagi ijtimoiy qatlamlarni ekologik munosabatlarni tartibga solish va ekologik xolat va uning barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ekologik ofat va uning salbiy oqibatlarini kelajakdagi ta'sirini kamaytirish, mummlarni oldini olish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish xayotimiz kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligini alohida ta'kidlab o'tilgan.

Namangan viloyatida ham inson bilan tabiat munosabatlari keyingi vaqtlarda tobora jiddiylashib bormoqda. Bu ayniqsa qishloq xo'jaligi, transport, qurilish materiallari, yengil hamda oziq-ovqat sanoatlari, maishiy-kommunal va boshqa sohalar faoliyatida yaqqol sezilmoqda. Tabiiy boyliklarning xo'jalik muomalasiga kiritish va ulardan inson ehtiyojiga ko'proq sarf qilish kuchaygan sari ming yillar davomida barqaror bo'lib kelgan ekologik muvozanat buzilib, inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabat murakkablashib, joylarda ekologik holat keskinlashib bormoqda.

“Ekologik holatidan kelib chiqqan holda tabiiy tizimni takomillashtirish va boshqarish alohida o'rin tutadi. Chunki hozirgi sharoitda iqtisodiy mas'uliyatsizlik, tabiatga, atrof-muhitga katta zarar yetkazadi, ekologik resurslarni talon-taroj qilishga olib keladi. Bunday holatlarga barham berish uchun bozor munosabatlari sharoitida tabiatdan foydalanishni tartibga solish g'oyat muhimdir”. Namangan viloyatidagi ekologik vaziyat Farg'ona vodiysining boshqa hududlariga nisbatan unchalik jiddiy emas, lekin, ayrim joylar (adir mintaqasi)da inson xo'jalik faoliyatida tabiiy komplekslarning mahalliy xususiyatlariga yetarli e'tibor berilmasligi natijasida turli noxush jarayonlarning rivojlanishi mavjud ekologik holatni murakkablashtirmoqda (tuproq eroziyasi va sho'rlanishi, yaylov-larning degradatsiyasi va boshq). Bu jarayonda ekotizimlarning buzilishi kuzatilmoqda,

chunonchi, tuproqning yuvilishi madaniy o'simliklar vegetatsiyasi va ba'zi bir hayvonlarning yashash sharoitlarini qiyin ahvolga solishi tufayli jonli tabiat zarar ko'rmoqda. Binobarin, ekotizimlardan foydalanish chog'ida ekologik yondashuv ishlab chiqarish jarayonida ustuvor ahamiyatga ega bo'lmog'i lozim. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, ***Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, tsivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoni hal qilishga bog'liqdir****.

Shundan kelib chiqqan holda viloyatning geoekologik muammolarini ilmiy asosda o'rganish va tegishli ilmiy hulosalar chiqarish, ekologik holatini baholash, bashoratlashtirish hamda amaliy tadbirlar majmuasining ekologik-geografik asoslarini ishlab chiqish, ushbu BMI tanlangan mavzusining dolzarbligini ifodalab beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ishlab chiqarish jarayonida tabiatdan foydalanishda undan olinayotgan boylik miqdori, turi, olishning usuli, barqarorligi, majmualiligi, ilmiy yondashuvliligi va asoslanganlik darajasi kabi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tabiatdan foydalanishning nazariy geografik asoslari V.A.Anuchin (1978) tomonidan ilk bor atroflicha o'rganishga harakat qilinib, unda nazariy, ilmiy-tashkiliy va metodik, sohali hamda hududiy jihatlar tadqiq qilingan.

Farg'ona vodiysida tabiatdan foydalanish ko'hna tarixga ega bo'lib, ilk geografik ma'lumotlar Zahiriddin Boburning "Boburnoma" asarida uchraydi. V.P.Nalivkin (1886) ma'lumotlariga ko'ra: Navkent-Namangan, Navkent-Chortoq, Peshqo'rgon-Chortoq vodiylari oraliqlariga ko'chib kelgan "ko'chmanchi o'zbeklar"ning don, non mahsulotlariga bo'lgan talabi yanada ortib, ular o'z ekin maydonlarini kengaytirishga majbur bo'ladilar. V.A.Anuchin (1978) monografiyasida tabiatdan foydalanishning falsafiy-nazariy masalalari atroflicha tahlil qilishga uringan. Yu.K.Efremov (1978) tabiatdan foydalanishga nazariy

* И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997. 115-116 б.

jihatdan yondashib muhitni qayta o'zgartirishda ikki turdagi o'zgarish mavjudligini esga soladi: 1) yo'l-yo'lakay, 2) oldindan o'ylab qilingan va maqsadga muvofiq. Birinchi yondashuv tabiatni kambag'allashuviga sababchi bo'ladi, ikkinchi yondashuvda esa tabiat reja asosida sifat jihatidan qayta o'zgartiriladi. Bu borada muallif G.F.Xil'mi, D.L.Armand, I.P.Gerasimov va boshqalarning fikrlari asosida tabiatni qayta o'zgartirish kontseptsiyasini asoslaydi. Tabiatdan foydalanish mavzusiga P.G'ulomov (1985, 1990) bir necha marta murojaat qilgan. T.G.Runova (1985, 1987) tabiatdan foydalanish bo'yicha Yu.Ahmadaliyev (2001)ning ta'kidlashicha, yer resurslarini o'rganishga tarixiy-geografik yondashuvni qo'llash bilan Farg'ona vodiysida yerdan foydalanishning o'tgan tarixiy davrlarda o'zgarishini tadqiq qilishga erishish mumkin.

Keyingi vaqtlarda tabiatda turli tabiiy va antropogen jarayonlarning keng miqyosda rivojlanishi munosabati bilan tabiatdan foydalanish mexanizmi yanada chuqurroq va atroflicha tahlil qilina boshlandi. A.Qozoqov, A.Nazarov, K.Boymirzaevlar tomonidan Namangan viloyatida tarkib topgan ekologik muammolarni o'rganilib, ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Mazkur BMIning tadqiqot **ob'ekti** sifatida Namangan shahar tabiiy boyliklari va resurslari, landshaftlari, tabiiy jarayonlari va tabiat-xo'jalik majmualari tanlangan. Shunga muvofiq, shahar xududi tabiatidan foydalanishning ekologik jihatlarini isbotlash va ekologik muammolarni aniqlash tadqiqot ishining **predmetini** belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Asosiy maqsad - Namangan shahar sharoitida tabiatdan foydalanish jarayoniga ekologik muammolarni o'rganish va unga qarshi kurash choralarining ishlab chiqish hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ishda quyidagi vazifalar belgilandi va hal etildi:

- shahar tabiiy resurslarining antropogen ta'sirida o'zgarishi va ularni o'rganishning ilmiy tahlili;
- Namangan shahrida beradigan ekologik muammolarni o'rganish;
- Ekologik muammolarni o'rganish tarixi va hozirga ahvolini aniqlash;

- Ekologik muammolarni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish;
- shaharda ekologik xolatni barqarorlashtirish choralari ishlab chiqish hamda amaliy tavsiyalar berish.

BMIning ilmiy - amaliy ahamiyati. Keyingi yillarda, tabiatdan foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishning dolzarbligi haqida olimlar ilgari qutirib keladilar. Aslini olganda bu ilmiy muammo o'z zamonasiga qarab har doim dolzarb bo'lib kelgan va bundan keyin ham o'zining ayni shu xarakterini saqlab qoladi, chunki, tabiat resurslaridan foydalanish muntazam ravishda ishlab chiqarishni takomillashtirishni talab etadi. Namangan shahri tabiatidan foydalanishning nazariy va metodologik negizlarini o'rganish hamda ekologik-geografik xolatini barqarorlashtirish asoslarini ishlab chiqish, tabiiy resurslardan foydalanishning hozirgi ahvoli va imkoniyatlarini o'rganish, tahlil qilish BMIning ilmiy - amaliy ahamiyatini belgilaydi.

1. Namangan shahri tabiati va uning resurslaridan oqilona foydalanish, tabiiy va antropogen landshaftlar va landshaft komponentlarining ahvoli, barqarorligi, o'zgarishi hamda rivojlanish qonuniyatlari taxli qilinadi.

2. Boshqa hududlarda bo'lgani singari Namangan shahrida ham tabiatdan foydalanish bozor iqtisodiyoti sharoitida murakkablashgan, kishilarning tabiiy resurslarga bo'lgan munosabati sifat jihatdan o'zgarganligini aniqlash va shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, aholi salomatligiga ham salbiy ta'sir etayotganligi taxli qilish.

3. Namangan shahri tabiatining umumiy xususiyatlarini shakllanishida tabiiy resurslarning (suv, yer, iqlim va agroiklim, o'simlik va hayvonot dunyosi,) ahamiyati hamda mavjud tabiiy resurslarning hozirgi ahvoli, foydalanish imkoniyatlari ekologik-geografik jihatdan to'la tahlil qilinib, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning shora-tadbirlari tavsiya etiladi.

BMIning tarkibiy tuzilishi. BMI kirish, 2 bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Jami sahifa bo'lib, shundan bevosita matn qismi bet. Shu bilan birga 1 ta karta chizma, 1 ta jadval berilgan, foydalanilgan adabiyotlar 24 manbadan iborat.

I – BOB: NAMANGAN VILOYATIDA TABIATNI MUHOFAZA QILISH VA UNDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Tabiatdan foydalanish va tadqiq qilishni nazariy-metodologik asoslari

Farg'ona vodiysida tabiatdan foydalanish o'ziga xos hududiy, mahalliy, nuqtali xususiyatlarga egaki, darhaqiqat bu jarayon uning viloyatlari va turli hududlarida farq qilishi aniqlangan, bu borada landshaft-balandlik mintaqalari xususiyatlarini e'tiborga olish ustuvor ahamiyatga ega. Chunki turli balandliklarda joylashgan hududlar tabiiy sharoitiga muvofiq ma'lum xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay.

Farg'ona vodiysida tabiatdan foydalanish ko'hna tarixga ega bo'lib, ilk geografik ma'lumotlar Zahiriddin Boburning "Boburnoma" asarida uchraydi. Jumladan, Farg'ona vodiysining shimoliy qismida Kosonsoy suvidan eng ko'p foydalanilganligi, Koson va Axsikent (Axsi) shaharlari shu daryo suvidan bahramand bo'lganligini Bobur quyidagicha ta'riflaydi: "Yana bir Kosondur. Axsining shimolida tushubdur. Yanada kichikroq kasabdur... Yaxshi havoliq yerdur safoliq bog'chalari bor. Vale safoliq bog'chalari tamom soy yoqasida voqe' bo'lg'on uchun "po'stini besh barra" debturlar. Safo va havoda O'sh bila Koson elining tabassubi bor" (Boburnoma, Toshkent 1989).

V.P.Nalivkin (1886) ma'lumotlariga ko'ra: Navkent-Namangan, Navkent-Chortoq, Peshqo'rgon-Chortoq vodiylari oraliqlariga ko'chib kelgan "ko'chmanchi o'zbeklar"ning don, non mahsulotlariga bo'lgan talabi yanada ortib, ular o'z ekin maydonlarini kengaytirishga majbur bo'ladilar. Nanay, Oqtom, Safedbuloq, Qizilyozi, Mamay va boshqa tog'lik qishloqlarda ariqlar qazilib, suv chiqaradilar (Qosimov, 1988). V.M.Legostaev (1975) mavjud tarixiy ma'lumotlar asosida irrigatsiya va melioratsiyaning taraqqiyotini tarixiy manbalar asosida yoritgan.

V.A.Anuchin (1978) monografiyasida tabiatdan foydalanish-ning falsafiy-nazariy masalalari atroflicha tahlil qilishga uringan. Uning talqin qilishicha, tabiatdan foydalanish keng ma'noda qo'llaniladi. U resurslar va tabiiy sharoitdan majmualiy foydalanishni qat'iyat bilan ilgari suradi va tabiiy resurslarni xo'jalik

muomalasiga kiritishda iqtisodiy jihatdan samarali foydalanishga erishish muammosini eng muhim hisoblaydi. SHuningdek, tabiat muhofazasini amalga oshirish, ayrim hollarda qayta tiklash va qayta o'zgartirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir, deb uqtiradi.

Yu.K.Efremov (1978) tabiatdan foydalanishga nazariy jihatdan yondashib muhitni qayta o'zgartirishda ikki turdagi o'zgarish mavjudligini esga soladi: 1) yo'l-yo'lakay, 2) oldindan o'ylab qilingan va maqsadga muvofiq. Birinchi yondashuv tabiatni kambag'allashuviga sababchi bo'ladi, ikkinchi yondashuvda esa tabiat reja asosida sifat jihatidan qayta o'zgartiriladi. Bu borada muallif G.F.Xil'mi, D.L.Armand, I.P.Gerasimov va boshqalar-ning fikrlari asosida tabiatni qayta o'zgartirish kontseptsiyasini asoslaydi. Tabiatdan foydalanish tushunchasini u quyidagicha ta'riflaydi, ya'ni insoniyatning tabiatga bo'ladigan barcha ta'sirini qamrab olgan holda, shuningdek uni muhofaza etish, o'zlashtirish, qayta qurish tomonlarini ham o'z ichiga oladi. Tabiatdan foydalanish tushunchasi ko'pgina mutaxassislar tomonidan (Preobrajenskiy va boshq., 1985, Reymers, 1990) ta'riflangan bo'lib, ularning mazmuni bir-biriga juda yaqindir. A.I.Pecherin (1978) tabiatdan foydalanishda ikki: 1) oqilona va 2) nooqilona yo'nalish borligini ko'rsatib o'tgan. Ularni sifat jihatidan farqini misollar yordamida asoslagan.

1983 yili Toshkent Davlat Universitetida "O'zbekistonda tabiatdan foydalanishning geografik asoslari" mavzusida ilmiy konferentsiya bo'lib o'tdi. Unda tabiatdan foydalanishning umumiy masalalari, tabiiy resurslar va komplekslarni o'rganish masalalari va ulardan oqilona foydalanish, Orol muammosi, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari, tabiatdan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy aspektlari, tabiiy sharoit va resurslarning o'rganish uslublari mavzularida mutaxassislar o'zaro ilmiy muloqatda bo'ldilar. O'zbekistonda tabiatdan hududiy foydalanish muammolarini yechimi ustida ilmiy munozaralar o'tkazildi. Tabiatdan foydalanish va uni qayta o'zgartirish, tabiat muhofazasi masalalarida yangi tushunchalar va aniqliklar kiritildi. Tabiatdan foydalanish mavzusiga P.G'ulomov (1985, 1990) bir necha marta murojaat qilgan. Uning yozishicha: "tabiatdan oqilona foydalanish bir-birlari bilan uzviy bog'lanib ketgan

uch masalani o'z ichiga oladi: bular tabiatdan oqilona foydalanish ya'ni tabiiy sharoit va resurslardan to'g'ri foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiatni o'zgartirishdan iboratdir". Muallif O'zbekistonda tabiatdan foydalanishning geografik asoslari, ya'ni, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan tabiiy geografik va antropogen jarayonlar to'g'risida mulohaza yuritadi, ularni kelib chiqish sabablari, omillari, shakllanishi hamda boshqaruv masalalari yoritib beradi. 1990 yilda muallifning ikkinchi o'quv qo'llanmasi nashr etildi. Buni birinchi kitobning mantiqiy davomi deb hisoblasa bo'ladi. Unda inson va jamiyat, tabiiy resurslar, tabiatdan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorlik kabi masalalarni o'rganish natijalari berilgan.

T.G.Runova (1985, 1987) tabiatdan foydalanish bo'yicha Rossiyada ko'zga ko'ringan yirik mutaxassislardan biri. U o'zining bir qator maqolalarida tabiatdan foydalanishning nazariy asoslarini ishlab chiqishga harakat qilgan.

Yu.Ahmadaliev (2001)ning ta'kidlashicha, yer resurslarini o'rganishga tarixiy-geografik yondashuvni qo'llash bilan Farg'ona vodiysida yerdan foydalanishning o'tgan tarixiy davrlarda o'zgarishini tadqiq qilishga erishish mumkin. Uning yozishicha XIX asrda vodiya iqtisodiyoti negizini qishloq xo'jaligi, aniqrog'i yerdan foydalanish tashkil etgan. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishda shunday yo'l tanlanganki, unda vodiyning tabiiy geografik sharoiti to'la hisobga olingan. Tog', adir, tekislik, qayir landshaftlaridan foydalanishga alohida yondashilgan. Har bir landshaftning tabiiy sharoitidan to'la foydalanish imkoniyatini beruvchi ekin turlari aniqlangan. Mustamlakachilik davrlarida, deb davom etadi muallif, tovar xom ashyo beruvchi paxta oziq-ovqat ekinlariga nisbatan katta hududlarda yetishtirilganligi tufayli paxta yakkahokimligi siyosati o'sha paytlarda boshlanganligi, mehnatkash xalqni oziq-ovqat mahsulotlariga talabi to'la qondirilmaganligi, yerning ishdan chiqishini tezlashganligini bilib olish mumkin.

Keyingi vaqtlarda tabiatda turli tabiiy va antropogen jarayonlarning keng miqyosda rivojlanishi munosabati bilan tabiatdan foydalanish mexanizmi yanada

chuqurroq va atroflicha tahlil qilina boshlandi. A.Qozoqov (1995) Namangan viloyatida tarkib topgan ekologik muammolarni o'rganib, quyidagilarni ta'kidlaydi: 50-yillarning boshlarida 1 ga sug'oriladigan maydonda 3-3,5 mlrd. atrofida mikroorganizmlar, 5-6 mln. dona chuvalchanglar yashagan bo'lsa, endilikda bu ko'rsatkich bir necha marta kamayib ketdi. CHunki yerga juda ko'plab mineral o'g'itlar va pestitsidlar solinganligi tufayli ular bu zaharli kimyoviy ashyolarga bardosh bera olmay, qirilib ketdilar. SHuningdek, Norin daryosida suvning tobora sovub, loyqasizlanib (tinib) kelayotganligi tuproqqa va ekinzorlarga salbiy ta'sir etmoqda. Ayniqsa, suv omborning tagidan kelayotgan suvning boshqa suv manbalariga qaraganda haroratining pastligi, qishloq xo'jaligi ekinlariga, jumladan, paxatning ochilishini kechikilishiga va hosildorligining kamayishiga sabab bo'lgan.

Hozirda, tabiatdan nooqilona foydalanish natijasida viloyatda irrigatsiya eroziyasi, deflyatsiya va turli daraja tuproq sho'rlanishlari rivojlangan. Sug'oriladigan yerlarning aksariy qismi eroziyaga uchragan. Bu holda dehqonchilikni nihoyatda ustalik bilan boshqarish, har bir ekin maydonining nishabligini alohida e'tiborga olib sug'orishni tashkil qilish talab qilinadi (Qozoqov, 1995).

“Ekologik holatidan kelib chiqqan holda tabiiy tizimni takomillashtirish va boshqarish alohida o'rin tutadi. CHunki hozirgi sharoitda iqtisodiy mas'uliyatsizlik, tabiatga, atrof-muhitga katta zarar yetkazadi, ekologik resurslarni talon-taroj qilishga olib keladi. Bunday holatlarga barham berish uchun bozor munosabatlari sharoitida tabiatdan foydalanishni tartibga solish g'oyat muhimdir” (Abdullaev, 2001).

Farg'ona vodiysining landshaft-ekologik muammolari va ularni yechimi ayni paytda dolzarb, ular tabiatdan to'g'ri foydalanish tamoyillarini buzilishi bilan bog'liq. K.Boymirzaev, A.Nazarov (2000) vodiylar tabiiy boyliklarini xo'jalik muomalasiga kiritishda mavjud tabiiy mintaqalanishni hisobga olishni taklif qilgan holda, ularning mahalliy va hududiy tabiiy sharoitlariga alohida ahamiyat berishni uqtiradilar. Tarkib topgan landshaft-ekologik muammolar vodiylarda landshaft-

balandlik mintaqalanishi xususiyatlarini e'tiborga olmaslik tufayli shakllangan. Tabiatdan foydalanishning nazariy va metodologik masalalari A.Rafiqov (2000, 2002), P.G'ulomov, S.Abdullaev (2000), A.Rafiqov, A.Nazarov (2002) va boshqalar tomonidan ilgari surilgan. Ilmiy tadqiqotlar natijasida O'zbekiston hududi, ba'zan Farg'ona vodiysi misolida tabiiy boyliklarni xo'jalik muomalasiga kiritish, mavjud resurslardan foydalanish uslubini takomillashtirish, ularning iqtisodiy samaradorligini muttasil oshirib borish, isrofgarchilikka va resurslardan foydalanish Chog'ida antropogen jarayonlarning tarkib topishiga yo'l qo'ymaslik, bu murakkab ishlab chiqarish jarayonida tabiat muhofazasi, qayta tiklash va o'zgartirish yumushlarini majmuali tarzda bir vaqtda amalga oshirish atroflicha asoslangan. SHuningdek, mualliflar mavjud tabiat qonunlari va qonuniyatlarini to'g'ri hisobga olish, ilmiy yondashuvlardan ob'ektiv foydalanish hamda mos tadqiqot uslublarini ishga solishda majmualilikka tayanish lozimligini uqtirganlar.

1.2. Namangan viloyati tabiatidan foydalanishning ekologik jihatlar

Hozirgi davrda tabiatga inson ta'siri oqibatlarini o'rganish va bular qanday natijalarga olib kelishini oldindan bilish uchun tabiiy geografik tizimlarda inson xo'jalik faoliyati bevosita vujudga keltirgan o'zgarishlar bilan birga komponentlarning o'zaro munosabatlarida ro'y bergan o'zgarish-larni tadqiq qilish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Namangan viloyati geomorfologik tuzilishiga ko'ra tekislik, adir, adirorti tekisliklari, tog'oldi etaklari va tog'li hudud-lardan iborat. Rel'ef tuzilishiga ko'ra xilma-xillik viloyatning tabiiy resurslari salohiyati, ulardan foydalanish ahvoli hamda muhofaza qilish masalalarida ham turlicha holatlarni keltirib chiqaradi. Viloyatning +urama va Chotqol tog' tizmalarining janubi va janubi-g'arbida joylashgan katta qismi ham hozirgi kunda sug'oriladigan hududlarga aylanib bormoqda. Yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orib dehqonchilik qilish uchun 70-yillardan boshlab 16 dan ortiq suv omborlari va selxonalar, 100 dan ortiq nasos stantsiyalari, Katta Namangan, Chust kanallari ishga tushirildi. Natijada sug'oriladigan yerlar maydoni ortib tog'oldi zonalarigacha yetib bordi. O'tgan davr

(1970-2000 yillar) mobay-nida 100 ming gektardan ortiq yerlar o'zlashtirildi. 90-yillardan boshlab Shimoliy Farg'ona adirlari va ular orasida joylash-gan tekisliklarda yer osti suvlari sathining ko'tarilib borayot-ganligi aniqlandi. Buning oqibatida viloyatning bog'dorchilik, uzumchilik, meva va sabzavotchilikka ixtisoslashgan bir qator xo'jaliklarida hosildorlik kamayib, tuproq unumdorligi pasayib bormoqda. Bu esa yerlarga qo'shimcha meliorativ chora-tadbirlarni o'z vaqtida qo'llashni taqozo etadi. Namangan viloyatining joylashgan o'rni, relief xususiyati va boshqa tabiiy omillari bahorda sodir bo'ladigan jala va sel hodisalarining intensiv rivojlanishiga ta'sir etadi. Har yili kuzatiladigan sel va toshqinlar viloyat qishloq xo'jaligi hamda aholisiga katta zarar yetkazmoqda. Bunday tabiiy ofatlarni oldini olish uchun sel o'zanlari yo'lini ochib qo'yish, mavjud selxonalarni ta'mirlash kabi tadbirlarni qo'llash zarur. Sirdaryo sohilida joylashgan (Mingbuloq va Pop tumanining ayrim xo'jaliklari) hududlarida deflyatsiya katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Ayniqsa, bahor faslida esadigan va tezligi sekundiga 20-30 m ga yetadigan shamollar ta'sirida qishloq xo'jalik ekinlarini, ariq-zovurlarni va yo'llarni qum bosishi kuzatilmoqda.

Bizningcha, Namangan viloyati tabiati va uning resurslaridan foydalanish davomida sodir bo'layotgan bunday noxush ekologik muammolar viloyatning tabiiy resurslari salohiyatidan foydalanishni rejali amalga oshirilmayotganligi natijasidir. Sanoat, qishloq xo'jaligi va umuman inson xo'jalik faoliyatining tabiatga tazyiqi oshib borishi "tabiat-xo'jalik-jamiyat" tizimida ma'lum nomutanosiblikni vujudga keltirmoqda. Bu nomutanosibliklar nafaqat tabiatga, balki ijtimoiy-iqtisodiy muhitga, aholi salomatligiga ham salbiy ta'sir qiladi.

Biz quyida viloyatning tabiiy resurslari salohiyatini va ulardan oqilona foydalanishning ekologik jihatlarini atroflicha tahlil qilishga harakat qilamiz.

Iqlimiy sharoiti va agroiklim resurslardan foydalanish Farg'ona vodiysi iqlimining vujudga kelishida uning geografik o'rni, okeandan uzoqligi, atrofi baland tog' tizmalari bilan o'ralganligi, radiatsion va tsirkulyatsion jarayonlar muhim o'rin tutadi. Natijada hududda juda ham kontinental iqlim qaror topgan bo'lib, chala cho'l mintaqasini iqlimiy holati yaqqol sezilib turadi. Namangan

viloyati iqlimi uning geografik o'rni va u bilan bog'liq holda quyosh radiatsiyasi, atmosfera tsirkulyatsiyasi, reliefi, yer yuzasining hamda o'simliklarning holati, iqlimga inson xo'jalik faoliyatining ma'lum sharoitdagi ta'siri natijasida vujudga kelgan. Viloyat iqlimini hosil qiluvchi omillar ichida eng muhimlaridan biri uning geografik o'rni va u bilan bog'liq quyosh radiatsiyasidir. Quyosh radiatsiyasi barcha tabiiy jarayonlarning energetik negizi hisoblanadi. U o'z navbatida joyning geografik kengligi, havoning ochiqligi va quyosh nur sochib turadigan davriga bog'liqdir.

Viloyat iqlimining o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishida shimoldan keladigan Arktika havo oqimi va janubdan harakatlanuvchi tropik havo oqimlari ishtirok etadi. Bu havo oqimlarini ko'pincha baland tog' tizmalari to'sib qolsada, lekin baland havo oqimlari Namangan viloyati hududiga bemalol kirib keladi hamda asosiy yog'inlarni hosil qiladi. Ayniqsa, kuz va qishda Arktika havo massalarining kirib kelishi havo haroratini keskin pasayib ketishiga Atlantika okeani nam havo massalari esa yog'ingarchilikni ortib borishiga ta'sir ko'rsatadi. Yozda mo'tadil va tropik havo oqimlari viloyat iqlimining quruq va issiq bo'lishini ta'minlaydi.

Namangan viloyatining janubiy, ya'ni tekislik mintaqasi juda ham kontinental iqlimga mansub. Yanvar oyining o'rtacha harorati $-0,2-2,4^{\circ}\text{S}$, mutloq eng past harorat esa $-27-29^{\circ}\text{S}$. Iyul oyining o'rtacha harorati $+20+28^{\circ}\text{S}$, eng yuqori harorat $+44^{\circ}\text{S}$ ga teng. Yillik yog'in miqdori 150-180 mm (Namangan st.), yog'ingarchilik asosan qish va bahor oylariga to'g'ri keladi. Yozda 10-15 mm atrofida yog'in tushadi. Qor qoplamining o'rtacha qalinligi 10 sm, ayrim yillarda 20 sm dan ortadi va u 20-40 kun turadi. Tekislik mintaqasida maydan fevralga qadar g'arbiy (+o'qon shamoli) va dekabrda fevralga qadar esa sharqiy shamollar esadi. Ayniqsa, sekundiga 15 m dan ortiq tezlikda harakatlanuvchi shamollarning 30 kundan ortiq davom etishi, qishloq ho'jaligiga jiddiy zarar keltiradi.

Adirlar, adirorti va tog'oldi tekisliklari mintaqasida iqlim g'arbdan-sharqqa va janubdan-shimolga tomon sezilarli darajada o'zgarib boradi (Kosonsoy st.). Sutkalik va yillik havo harorati ma'lum darajada tebranib turadi hamda juda ham

kontinental xususiyati xarakterlidir. Yanvarning o'rtacha harorati $-6-8^{\circ}\text{S}$, eng past harorati $-29-30^{\circ}\text{S}$, iyul oyining o'rtacha harorati $+26+28^{\circ}\text{S}$, eng yuqori harorati $+43+44^{\circ}\text{S}$ ga yetadi. O'rtacha balandlikdagi va baland tog'lar mintaqasida qish sovuq, $-3,5-4^{\circ}\text{S}$, yoz esa ancha salqin, $+20+21^{\circ}\text{S}$. Dengiz sathidan yuqorilab borgan sari hamda g'arbdan sharqqa va shimoliy-sharqqa tomon yog'in miqdori o'zgarib boradi. Masalan, yillik yog'in miqdori Popda -161 mm, Paxtalikko'lda -148 mm, Qizilrovotda -256 mm va Kosonsoyda -315 mm ni tashkil etadi.

Namangan viloyatida har yili takrorlanib turadigan do'l hodisalari viloyatining adir va tog'oldi, ya'ni CHust, Kosonsoy, Yangiqo'rg'on va CHortoq tumanlariga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Ko'p yillik ma'lumotlarga qaraganda do'l hodisalari asosan ekinlarni ekish va undirib olish hamda bog'lardagi daraxtlar qiyg'os gullaganda ya'ni martning o'rtalaridan aprel-may, ayniqsa daraxtlar hosilga kirgan hamda pishgan iyun-iyul oylarida kuzatiladi.

Viloyatda shimoldan esuvchi shamolning o'rtacha tezligi 1-3 m/sek bo'lib, takrorlanish jarayoni 30-80 foiz. SHimoli-g'arbiy shamollar ham tez-tez takrorlanib turadi. SHimoldan esadigan shamollar tog'-vodiy shamollari bo'lib, "Kosonobod" nomini olgan va tunda, soy vodiylari bo'ylab harakatlanadi.

Qishloq xo'jaligi sohalari ixtisoslashuvi va rivojlanishida relief, iqlim, tuproq, suv va tabiiy yaylov resurslari muhim o'rin tutadi. Mavjud agroiklimiy xususiyatlar va ijtimoiy-iqtisodiy omillar Namangan viloyatida paxta-sanoat majmuasini (paxtani yetishtirish, tayyorlash, qayta ishlash bosqichlarini o'z ichiga oladi), bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik (relief, tuproq va iqlimiy xususiyatlar), chorvachilikning (paxta-beda almashlab ekish va tabiiy yaylovlar asosida) rivojlanishiga olib keladi. Viloyat hududida $+10^{\circ}\text{S}$ dan yuqori bo'lgan havo harorati yig'indisi dengiz sathidan 500-550 m balandlikda 4700° , 550-750 m balandlikda 4400° va 750 m balandlikda esa 4100° . Viloyatning tekislik qismida paxtachilik, sholichilik yaxshi rivojlangan. Bu hududlar kontinental iqlimga mansub, yanvar oyining o'rtacha harorati $0,2-2,4^{\circ}\text{S}$, iyul oyiniki esa $20+28^{\circ}\text{S}$. Yillik yog'in miqdori 150-180 mm, vegetatsiya davri 230-

240 kun. $+10^{\circ}\text{S}$ dan ortiq haroratlar yig'indisi $5000-4600^{\circ}\text{S}$. Havoning ochiq kelishi mevalarning sershira bo'lishiga va ularda bo'ladigan kasalliklarni kamayishiga sabab bo'ladi.

Qulay agroiklimiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida Namangan viloyatida o'ziga xos qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi shakllangan. Viloyat paxta, xilma-xil meva va sabzavot ekinlari yetishtirishga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. Jami ekin maydoni 230 ming ga bo'lib, shundan, 42 %i paxta, 42%i g'alla, 8%i sabzavotlar, 4%i yem-xashak ekinlari, 4%i esa boshqa ekinlar bilan band (Soliev va boshq., 2003). Namangan viloyatining tuproq-iqlimiy sharoitlari sabzavot va poliz ekinlarini yetishtirish uchun juda qulay. Lekin do'l va kuchli jalalar ekinzorlarga katta iqtisodiy zarar ham keltiradi. Bu hodisalarni oldini olish maqsadida 1969 yildan boshlab do'lga qarshi harbiylashtirilgan bo'lim xizmati tashkil qilindi. Ammo, ko'rigan chora-tadbirlarga qaramay kuchli jala yog'inlari va do'l urishlari davom etmoqda. SHuningdek, yodlangan kumush kukunlari yomg'ir bilan tushib meva-sabzavot ekinlarini zaharlab, turli kasalliklarni ko'payishiga olib kelmoqda, bu hol istiqbolda mamlakatdagi aholi eng zich joylashgan Farg'ona vodiysida do'lga qarshi harbiylashtirilgan xizmatdan voz kechish maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda.

Namangan viloyatining hududi qulay agroiklimiy xususiyatga ega bo'lishi bilan birga issiqxona xo'jaliklarini rivojlan-tirish uchun ijobiy sharoit yaratadi. Aholining qish va bahorda yangi sabzavotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda issiqxona xo'jaliklari muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda issiqxona xo'jaliklarida sabzavot mahsulotlari yetishtirish ko'paydi.

L.N.Babushkin, N.A.Kogay, SH.S.Zokirovlarning (1985) tasnifiga ko'ra Namangan viloyati hududini ham quyidagi agroiklimiy zonalarga ajratish mumkin: 1) Issiq ($5000-4500^{\circ}\text{S}$), 2) Mo'tadil, issiq va quruq ($4500-4000^{\circ}\text{S}$), 3) Issiq va sernam ($4000-3000^{\circ}\text{S}$), 4) Salqin va nam ($3000-1000^{\circ}\text{S}$). Ushbu tasnifga muvofiq viloyatdagi ajratilgan agroiklimiy zonalar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, viloyat tumanlarida turlicha taqsimlanadi. Jumladan, Mingbuloq, Namangan, To'raqo'rg'on, Uychi, Norin tumanlari hududi va Pop, Chust, Chortoq

tumanlarining janubiy qismlari issiq, Pop, Chust, Kosonsoy, To'raqo'rg'on, Chortoq, Yangiqo'rg'on tumanlarining adir va adirorti tekisliklari mo''tadil, issiq va quruq, viloyatning tog' oldi o'rtacha balandlikdagi tog'lar hududi issiq va sernam, baland tog'lar esa salqin va nam agroiklim zonalari tarkibiga kiradi. Namangan viloyatidagi agroiklimiy xususiyatlarni hisobga olib qishloq xo'jalik ekinlarni quyidagicha joylashtirish maqsadga muvofiq-dir. Issiq agroiklim zonada paxtaning kechpishar (ingichka tolali) navlari, donli ekinlar, poliz ekinlarini, mo''tadil issiq va quruq zonada paxtaning o'rta va tezpishar navlari, bog'dochilik, uzumchilik, sabzavotchilik, kartoshkachilik, donli ekinlar (bug'doy), issiq va sernam zonada kartoshkachilik, sabzavotchilik, uzumchilik, yem-xashak ekinlari, salqin va nam zonada esa yem-xashak ekinlari va yaylovlarni rivojlantirish imkonini beradi.

Hayotni suvsiz tasavvur etib bo'lmaydi, shuning uchun suv eng qimmatbaho tabiiy resurs hisoblanadi. Tabiat hosilasi bo'lgan suv-sanoat korxonalari, qishloq xo'jalik ekinlari, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun eng muhim boylik. Suv tabiatda modda va energiyani aylanishida, ya'ni fotosintez jarayonida ham faol qatnashadi. SHu bilan birga tirik organizmlarni ham ko'p qismini suv tashkil etib, ularni o'sish va rivojlanishida asos vazifasini o'taydi. Tirik organizmlarda suv almashuvini buzilishi bajarayotgan turli funktsiyalarini o'zgarishiga sabab bo'ladi (Makvenin, Vakulin, 1991, SHodimetov, 1994).

Farg'ona vodiysining suv resurslari va ularning gidrogeologik xususiyatlarini tadqiq etishda N.F.Bezobrazova (1932), F.F. Mujchinkin (1932), V.A.Geynts (1949, 1967) kabi qator olimlarning xizmatlari katta. Ular Farg'ona botig'ining gidrogeologik xususiyatlarini o'rganish bilan birga, yer osti suvlarining hosil bo'lishini, rejimini, minerallasish jarayonlarini, kimyoviy tarkibini tekshirganlar va ularni tasniflashtirganlar hamda gidrologik rayonlashtirganlar. Viloyatning asosiy suv resurslari manbai daryolar, soylar, suv omborlari, kanallar va yer osti suvlari hisoblanib, ular sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligini turli tarmoqlarini rivojlantirishda hamda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashda katta ahamiyatga egadir.

1.3. Shaharlar ekologiyasi va uni o'rganish dolzarbligi

Xozirgi vaqtda ilmiy-texnika taraqqiyoti xayotda yangidan-yangi ekologik muammolarni keltirib chiqardi, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabat tubdan o'zgardi. Mavjud ekologik muammolarni to'liq o'rganish va bartaraf etish maqsadida ekologiya fanining yangi tarmog'i bo'lmish Kommunal yoki SHaxar ekologiyasi fani shakllandi. SHaxar ekologiyasi fani rivojlanayotgan yosh fanlar qatoriga kiradi. SHaxar ekologiyasi fanining rivojlanib borishi albatta odamlarni ekologik, tibbiy, ijtimoiy fanlar bo'yicha tushunchalari xamda ularning dunyo qarashlariga bog'liq. Kommunal yoki shaxar ekologiyasi shaxar, posyolka, qishloq axolisi xayoti va sog'ligi bilan bog'liq bo'lgan va unga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi salbiy omillarning oldini olishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

Kommunal ekologiya ko'p qirrali fan bulib, ilmiy asosga tayangan xolda insonning (sixat-salomatligini saqlash) yashash sharoitini yaxshilash uchun turli ekologik talablar ishlab chiqadi, konuniy ravishda bajarilishi zarur bo'lgan normativ xujjatlarni tayyorlaydi va turli vazirliklar yordamida ekologik xamda sanitariya-gigiena qoidalari, ko'rsatmalar, qo'llanmalarni tasdiqlab, ularni amalda joriy qilinishini kuzatadi. Bu xujjatlarni asl maqsadi axolini ekologik va gigienik axvolini yaxshilash, kishilar uchun qulay yashash muxiti yaratishdir.

Shaxar ekologiyasining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Turar joylarni loyixalashtirish ekologiyasi.
2. Atmosferani ekologik xolatini yaxshilash.
3. Axolini toza ichimlik suv bilan ta'minlanishiga erishish.
4. Suv xavzalarini ekologik xolatini yaxshilash.
5. Fizik omillarni axamiyatini to'g'ri baxolash va ulardan to'g'ri foydalanish.
6. Jamiyat xizmatida bo'lgan binolarni ekologik va gigienik xolatini yaxshilash.

Kommunal ekologiya fani biologiya, sanitariya-gigiena, meditsina, geografiya, astronomiya va shu kabi juda ko'p fanlar bilan chambarchas bog'lik. Albatta kommunal ekologiya fani kishilarga ta'sir etuvchi tabiiy va ijtimoiy muxitni o'rganadi. Kishilar uchun qulay muxitni aniqlashga va yaratishga xarakat

qiladi. Odamlar zich joylashgan shaxarlarda ekologik va gigienik ko'rsatkichlarni yomonlashuvi kishilar uchun katta xavf tug'diradi. SHu sababli kishilar zich yashaydigan shaxar sharoitida kishilarni toza suv, toza xavo bilan ta'minlash, shovqin va epidemiyalarning oldini olish juda muxim.

Qadim Turkistonda azaldan ekologik qarashlar mavjud bo'lib kelgan. Insoniyat uz evolyutsiyasi davomida tabiat qonunlariga bo'y so'nib kelgan. SHu davrlar davomida inson tabiat qonunlarini o'rganib xam kelgan. Chunki bu tabiat qonunlarini o'rganmasdan yoki bu qonunlarga moslashmasdan yashab qolish mumkin emas. Inson shu tabiat qo'ynida yashar ekan, o'ziga qulay muxit yaratishga xarakat qiladi. Ibtidoiy davrdan xozirgacha qurilgan uylar o'rtasida tafovut juda katta. Yashab o'tgan dunyo olimlari uy-joyni qanday qurish va qaysi muxitlarda qurish xaqida o'z fikrlarini qo'l yozmalarda meros qilib qoldirganlar. Eramizdan ilgari 460-377 yillarda yashab o'tgan Gippokrat «Xavo, suv va joylar to'g'risida» nomli kitobida turar joylar xavosini, tuprog'ini va suvini o'rganishni tavsiya qilgan u shunday deb yozadi: «Kimki biror notanish shaxarga borib qolsa u shaxarning shamol yo'nalishiga va quyoshga nisbatan qanday joylashganiga e'tibor berish kerak, sababi shaxarning shimolga yoki janubga joylashishi inson salomatligiga turlicha ta'sir qiladi».

G'arbiy Yevropada yashab ijod qilgan yirik olimlardan Pettonkofer, Flyuger va boshqalar kommunal ekologiyani mukammal o'rganish masalasini ko'targanlar. Pettenkoferni fikricha kommunal ekologiyani o'rganishda boshqa tashqi muhitni o'rganuvchi fanlarning yordami juda muhim.

Kommunal ekologiya fanining tarakkiyotiga ulug' olim, O'rta Osiyo tibbiyotining namoyondasi Abu Ali Ibn Sino, Ismoil Jurjoniy va boshqalar o'z xissalarini qo'shdilar. Masalan: Ibn Sino o'z asarlarida yashash muxitida chang ko'p bo'lishi ham kishi umri qisqarishiga sababchi bo'ladi deydi. U ayniqsa havo harorati va namligiga aloxida e'tibor beradi. Insonlar yilning turli fasllarida sog'liqlarini saqlashning extiyot choralarini ko'rishlari zarurligini uqtiradi. Ko'pgina kasalliklar namlik oshganda yoki issiqlik darajasi haddan tashqari

oshganda kelib chiqadi deydi va shuni e'tiborga olib odamlarga kun tartibini tavsiya qilish kerak deydi.

O'rta Osiyolik olim Ismoil Jurjoniylar kasallikni kelib chiqishiga 5 xil omil sabab bo'ladi deydi:

1. Iqlim.
2. Oziq-ovqat va dori-darmon.
3. Uyqu va uyqusizlik.
4. Xarakat va xarakatsizlik.
5. Haddan tashqari xursandlik va xafagarchilik.

Jurjoniylar «Xorazmshoh xazinasi» kitobida zax, namligi yuqori bo'lgan joylarda uy qurganda poydevorini balandroq qurishni tavsiya etadi.

O'lkamizda kommunal ekologiya va gigienani taraqqiy ettirishda keyingi avlod vakillari bo'lishi professorlar A.Z.Voxidov, K.S.Zoirov, S.N.Bobojonov, SH.T.Otaboev, T.I.Iskandarov, N.S.Tojiboeva, R.U.Ubaydullaev, M.I.Ilyinskiy va boshqalar xizmati katta.

Har qanday fanning taraqqiyoti ijtimoiy formatsiyalar evolyutsiyasi bilan, texnika va madaniyat taraqqiyoti bilan maxkam bog'langandir. SHu jihatdan kommunal ekologiya va gigiena tarixi turli davrlardagi ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlarning ta'sirini aks ettiradigan bosqichlarga bo'linadi.

Tarixdan ma'lumki dunyoning hamma nuqtalarida kommunal ekologiya bir xil rivojlangan emas. Dunyoning bir nuqtasida kommunal ekologiya bo'yicha ijobiy ishlar amalga oshirilgan bo'lsa, ba'zi joylarda odamlarni muhitga mos yashashlari saviyasi past bo'lgan. Masalan: Qadimgi Xind va Xitoy qonunlarida (miloddan avvalgi 3000-4000 yillar) ovqatlanish va kundalik rejim, mehnat va dam olish tartibi to'g'risida gapirib o'tiladi, murdalarni ko'mish qoidalar ma'lum qilinadi. Eramizdan 1500 yil ilgari Misrda axlatlarni yo'qotish va botqoqliklarini quritish ishlari uyushgan holda o'tkazilar, sug'orish sistemalari va vodoprovodlar barpo etilgan edi. «Iso Masix qonunlari»degan asarda (eramizdan 1600 yil oldin). SHaxsiy gigiena, ovqatlanish, mehnat qilish va dam olish tartibiga taalluqli bir qancha qoidalar keltiriladi. Shuningdek ichiladigan suvga qo'yiladigan talablar va

yuqumli kasalliklarga qarshi kurash choralari bayon qilinadi. Afinada suyuqliklarni tashlash va oqova suvlarni yo'qotish uchun kanalizatsiya qurilgan edi. Bundan tashqari uy kurish va oziq-ovqat maxsulotlari ustidan sanitariya nazorati o'rnatilgan edi. Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish uchun qadimgi Yunonistonda binolar oltingugurt va xushbuy moddalar tutatib tozalanardi.

Qadimgi Rimni suv bilan ta'minlaydigan va kanalizatsiya inshootlari o'sha zamon uchun mo'jizaning o'zi edi. Qadimgi Rimda tog' buloqlaridan har bir kishiga bir kecha-kunduzda $0,5-1\text{m}^3$ suv yetkazib beradigan 14 ta yirik va 20 ta mayda vodoprovod bo'lgan. Rimda axlatlarni yuqumsizlantirishni ibtidoiy usullari mavjud bo'lgan. Narsa qushib, masallikni qalbakilashtirish va buzilgan oziq-ovqatni sotish ta'kib qilinar, binokorlik ishlari sanitariya nazorati olib borilar edi. Lekin qanchadan-qancha odamlarni qirib yuborgan Afinadagi toun, Rimdagi chehek, quzib turuvchi isitmalar, antik davr sanitariya bilimlari yetarli bo'lmaganligini bildiradi.

Rossiyada ham qadimgi davrda shaxar qurilishiga juda kata e'tibor berilganligini tarix ko'rsatib turibdi. Arxeologik qazilmalar vaqtida bir qancha rus shaxarlarida yo'l qoplamalari qoldiqlari topilgan. Qadimgi Novgoroda X-XI asrlarda, Suzdalda XII asr boshlarida yog'och yotqizilgan yo'llar qurilganligi aniqlangan. Yog'och yotqizilgan yo'llar Moskvada ham bo'lgan. Xolbuki G'arbiy Yevropada bunday yo'llar 1369 yildagina Nyurnbergda va faqat 1417 yilda Londonda paydo bo'ldi.

X asrga oid qo'lyozmalarda Korsunь vodoprovodi tilga olib o'tilgan. Novgorodda olib borilgan qazishlarda vodoprovod qoldiqlari topilgan. XV asrda Moskvada ham o'zicha oqadigan vodoprovod bo'lgan. Bundan tashqari rus shaharlarida jamoat xammomlari ko'p bo'lgan.

O'rta asrlar (XI-XIX) G'arbiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy va madaniy inqiroz davri bo'ldi. Feodal zulmi va to'xtovsiz urushlar oqibatida aholi qashshoq bo'lib qoldi. O'rta asrlarda xristian cherkovi baxt-saodat va jismoniy salomatlikdan jirkanishni targ'ib qilib chiqdi. O'rta asrlar Yevropasida antik madaniyat ham, madaniyatda yetishib kelayotgan yangi nixollari ham yo'q qilib yuborildi. Katta-

katta shaharlarda axlatlar uylarning derazasidan ko'chaga tashlanganining o'ziyoq sanitariya va ekologik madaniyatdan asar qolmaganini bildiradi.

Asriy ifloslarni tozalash ishi dastlab 1609 yildagina Parijda o'tkazildi va 1780 yildagina bu yerda axlatni ko'chaga tashlash odatiga qarshi kurashishga kirishildi. Ichki kiyim, choyshab, ko'rpa hamda yostiq jildlari XVIII asrgacha noyob bo'lib keldi. Bitliqilik juda ko'p tarqalgan bo'lib, qirol xonadonlarida ham uchrardi. Ovqat uchun tutiladigan aloxida idish Yevropada 15 asrda paydo buldi. Xojatxonalar odatda yo'q edi, jamoat binolari (qasr, cherkov) shu qadar iflos bo'lar ediki, xar narsaga o'rganib qolgan axoli axlatlar chirishidan chiqadigan qo'lansa xiddan bezor bo'lar edi.

O'rta asrlar tarixi xaddan tashqari katta epidemiyalar va Yevropa axolisining qirilishini bir kadar aks ettiradigan tarixdir. O'rta asrlarda Yevropada chechak, tif, gripp epidemiyalari to'xtamay davom etdi. Tanosil kasalliklari, teri va ko'z kasalliklari keng tarqalgan edi. 16 asrda toun epidemiyasi 25 million kishini yostig'ini quritdiki bu yevropadagi butun axolini to'rtan bir qismini tashkil etardi. Kommunal ekologiya va gigienani rivojlanishi Yevropada ulug' frantsuz revolyutsiyasidan keyin boshlandi. 1823 yili Yevropada osiyo vabosi epidemiyasi boshlandi. Osiyoda toun epidemiyasi xavfi tug'ildi. SHu muammolarning xammasi shaxarlarda vodoprovod o'tkazish, kanalizatsiya qurish zaruriyatini tug'dirdi. Kommunal ekologiya esa asta-sekin taraqqiy etib kela boshladi.

Albatta tarixiy davrlar davomida kishilarda ekologik va gigienik bilimlar shakllanib kelgan. Masalan: rus cherkovlaridagi muqaddas suv kishilarni ba'zi kasalliklardan tuzatgan. Bunga sabab suvga tashlangan kumush tangalar bo'lgan, ya'ni kumushning suvdagi juda oz miqdori xam mikroorganizmlarni o'ldiradi. Kishilar qo'rgoshin va alyumin idishdan foydalanish kasallik keltirib chiqarishini sezib, bu idishlardan foydalanmay qo'yganlar. Asrlar davomida ekologik bilimlarni asta-sekin rivojlanganiga sabab, albatta kishilarni dindorlar va amaldorlarning jamiyatni noto'g'ri boshqaruviga ko'r-ko'rona ergashganliklaridadir.

Shaxar taraqqiyotida transport, ya'ni temir yo'l, havo, avtomobil va suv transporti kabilar xamda tabiiy davolash resurslari-mineral suv manbalari, dengiz qirg'oqlari, tog'li rayonlar, o'rmonlar muhim rol o'ynaydi.

Har bir shaxarda aholiga xizmat qilish uchun madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish idoralari, korxonalar, maktab, magazin, tibbiyot muassasalari mavjud. Bular shaxar aholisiga xizmat qiladi.

Shaxar aholisi uch guruhdan tashkil topadi:

1. Asosiy yoki shaxarni tashkil etuvchi guruh – bular ishchilardan tashkil topib, shaxarning sanoat korxonalari va muassasalarida ishlaydilar.

2. Xizmat ko'rsatuvchi guruh – bular asosan aholiga xizmat ko'rsatib, shaxardagi savdo-do'konlarida, oshxonalarda, sog'liqni saqlash va madaniy-maishiy muassasalarda ishlaydilar.

3. Ishga yaroqsiz kishilar guruhi – bu guruxga maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar, pensiyadagi kishilar, uyda band bo'lgan kishilar, oliy va o'rta o'quv yurtlari o'quvchilari kiradi.

Shaxar aholisining 25-35% i asosiy guruxni tashkil etadi, aholiga xizmat ko'rsatadigan gurux %i shaxarni katta-kichikligiga bog'liq. Katta shaxarlarda ular 23-28%, o'rta va kichik shaxarlarda 19-22% ni tashkil etadi.

Keyingi vaqtlarda yangi qurilayotgan shaxarlarda aholi soni asosan mexanik ravishda ko'paymoqda, ya'ni u shaxardan bu shaxarga ko'chib borish va ishga joylashish orqali.

Keyingi vaqtlarda ko'pgina shaxarlar qaytadan qurilmoqda, yangi-yangi shaxarlar paydo bo'lmoqda. Bularning xammasi yangi zamonaviy loyixalar ishlab chiqish va ularni amalda joriy etishga da'vat etdi. Ekologlar va gigienistlar oldiga yangi loyixa va qurilishlarni ekologik talablar darajasida amalga oshirish va nazorat qilish vazifasini qo'ydi.

Uy-joy qurish va ularni xalq talabiga javob beradigan holda bo'lishi yuzasidan davlatimiz ko'p qarorlar chiqardi. Asosiy maqsad ko'p turar joy qurish va sifatiga e'tibor berishdir. Yangi qurilayotgan uy va shaxarlarga yangi ekologik talablar qo'yiladi: ya'ni, shaxarlar havosi toza, sanoat korxonalaridan uzoqroqda

qurilgani ma'qul, bundan tashkari, binolarni zich qilib qurmaslik, shaxar o'rtasida baland binolarni va shaxar chetiga past bo'yli binolarni qurish, shaxar xududida joylashgan kichik va o'rta sanoat korxonalari bilan turar joy binolari o'rtasida ekologik ximoya zonalari tashkil etish, shaxarni ko'kalamzorlashtirish. SHaxar ko'chalarini shamolni kelish yo'liga qaratib qurish shular jumlasidandir. Oqibatda yangi zamonaviy uylar o'zining ekologik talablarga javob berishi, gazlashtirilganligi, elektrlashtirilganligi, issiq va sovuq suvlar bilan ta'minlanganligi bilan ilgari qurilgan uylardan farq qiladi. Bu uy-joy muammosi xozirgi kunda 100% hal bo'ldi degan so'z emas. Masalan: O'zbekiston qishloqlarining faqat 70% i gazlashtirilgan xolos.

SHaxarda aholi zich yashashi hisobiga albatta havo, ochiq suv havzalari ifloslanishi va shovqinni oshishi tayin. Bu zararli omillarni oldini olish uchun 1958 yilda ishlab chiqilgan yangi qonunda shaxar territoriyasini turli funktsional territoriyalarga bo'lish ya'ni sanoat korxonalarini aholidan uzoq va zarari tegmaydigan qilib joylashtirish, transport yo'llarini kengaytirish, aholini dam olish va sport bilan shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratish ko'zda tutildi.

SHaxar, qishloq va posyolka qurilishida, maxsus moddaga binoan ekologiya va epidemiologiya muassasalari xulosasi talab etiladi. (bu esa o'z navbatida uy-joylarni ekologik talablar darajasida qurilishini ta'minlaydi) So'ngra qurilish maydoni tuproqlaridan namuna olinib, bakteriologik, kimyoviy va gelymintologik tekshiruv o'tkaziladi. Tuproq tarkibi sanitariya talablariga javob bersa qurish uchun yaroqli hisoblanadi. Bundan tashqari, qurilish uchun tanlangan maydon loyixada ko'rsatilgan ob'ektlar uchun yetarli xamda kelajakda turar joylarni kengaytirish imkoniyati mavjud bo'lmog'i lozim.

Qurilish uchun tanlangan yerga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Qurilish maydoni botqoqliklardan holi, suv bosmaydigan, yer osti suvlari chuqur joylashgan, tuprog'i quruq, unumdor bo'lishi kerak.
2. Ajratilgan joyning rel'fi ma'lum nishablik (0,5-10%) bo'lib, yog'in suvlari oqib ketadigan, hamda kanalizatsiya qurish uchun imkon bersin.

3. Aholini har taraflama ehtiyojini qondiradigan ichimlik suv bilan ta'minlanishini ko'zda tutish.

4. Qurilish maydonida qazilma boyliklari bo'lmasligiga e'tibor berish.

5. Quriladigan shaxar, qishloq va posyolkalarni katta va kichik yo'llar bilan bog'lash, gazlashtirish, elektrlashtirish shular jumlasidandir.

Ekologik muammolarni yechish kup jixatdan ijtimoiy demografik va ekologik siyosatni ilmiy asoslangan tarzda olib borishga boglik, bunda mintaka axolisining etnik uziga xosligi turmush an'analari va madani yati xisobga olinishi kerak.

Demografik muammolarni xal etish turmush tarzining ekologik sharoit larini yaxshilash yuli, ilmiy va rasmiy ma'lumotlarning kursatishicha, om maviy rejalashtirish bilan boglikdir. Insoniyat tarixida oilani rejalashtirish extiyoji yangilik emas. Amalda u kurrai zaminda insonning paydo bulishi bilan boglik. Insonda evolyutsiya jarayonida tartibga solishning roli biologik mexanizmlarini yuzaga keltirdi.

Birinchidan, insonning jinsiy yetilishi muddati ancha surildi va boshka sut emizuvchilarga nisbatan kechrok yakunlanadi. Bu uzok muddat bosh miya rivojlanishini va bir avloddan ikkinchisiga bilimlar va tajribani urgatishini ta'minlaydi. Natijada inson nasl koldirishga tula ma'suliyat bilan yondoshishi mumkin.

Ikkinchidan, laktatsion kuchsizlik mexanizmi shunchalik takomillashganki, tugish oraligidagi muddatlarni tegishliche tartibga solishga va shu tarika farzandlarni bokib tarbiyalashga yetarliche vakt bulishga imkon beradi.

Uchinchidan, ayollarning nasl koldirish kobiliyati yosh bilan cheklangan. Binobarin, bolaning onaga karamligi davri tabiat tomonidan belgilab kuyilgan.

Tarixiy tarakkiyot davomida inson xamisha tugilishni tabiat takozo etmasidan, ma'lum darajada cheklash va kushimcha nazorat kilish vositalaridan foydalangan. Lekin oilani rejalashtirish zarurati jiddiy keskinlashdi. Bu ayniksa axoli soni keskin ortib ketgan keyingi un yilliklarda yakkol kuchaydi.

II-BOB: NAMANGAN SHAHRINI EKOLOGIK HOLATI VA VAZIYATINI TO'G'RI BAHOLASHDA TABIIY MUHITNI OPTIMALLATIRISH ZARURIYATI

2.1. Namangan shahrining tabiiy, ijtimoiy ekologik muammolari va ularning taxlili

Ekologik muammolarni yechish kup jixatdan ijtimoiy demografik va ekologik siyosatni ilmiy asoslangan tarzda olib borishga boglik, bunda mintaka axolisining etnik uziga xosligi turmush an'analari va madani yati xisobga olinishi kerak.

Demografik muammolarni xal etish turmush tarzining ekologik sharoit larini yaxshilash yuli, ilmiy va rasmiy ma'lumotlarning kursatishicha, om maviy rejalashtirish bilan boglikdir. Insoniyat tarixida oilani rejalashtirish extiyoji yangilik emas. Amalda u kurrai zaminda insonning paydo bulishi bilan boglik. Insonda evolyutsiya jarayonida tartibga solishning roli biologik mexanizmlarini yuzaga keltirdi.

Birinchidan, insonning jinsiy yetilishi muddati ancha surildi va boshka sut emizuvchilarga nisbatan kechrok yakunlanadi. Bu uzok muddat bosh miya rivojlanishini va bir avloddan ikkinchisiga bilimlar va tajribani urgatishini ta'minlaydi. Natijada inson nasl koldirishga tula ma'suliyat bilan yondoshishi mumkin.

Ikkinchidan, laktatsion kuchsizlik mexanizmi shunchalik takomillashganki, tugish oraligidagi muddatlarni tegishlicha tartibga solishga va shu tarika farzandlarni bokib tarbiyalashga yetarlicha vakt bulishga imkon beradi.

Uchinchidan, ayollarning nasl koldirish kobiliyati yosh bilan cheklangan. Binobarin, bolaning onaga karamligi davri tabiat tomonidan belgilab kuyilgan.

Tarixiy tarakkiyot davomida inson xamisha tugilishni tabiat takozo etmasidan, ma'lum darajada cheklash va kushimcha nazorat kilish vositalaridan foydalangan. Lekin oilani rejalashtirish zarurati jiddiy keskinlashdi. Bu ayniksa axoli soni keskin ortib ketgan keyingi un yilliklarda yakkol kuchaydi.

Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Farg'ona ma'muriy viloyati tuzilgach, Namangan shahri uezd markazi bo'lib qoldi. 1917-1941 yillarda Farg'ona viloyatiga qarashli shahar, 1941 yil 6 martda Namangan viloyatining tashkil etilishi bilan viloyat markazi, 1960 yil 25 yanvardan Namangan viloyatining Andijon viloyatiga qo'shib yuborilishi natijasida Andijon viloyatiga qarashli shahar va 1967 yilning 18 dekabrda Namangan viloyati qayta tashkillanishi bilan yana viloyat markazi maqomiga ega bo'ldi. Maydoni 0,083 ming km². Aholisi 433,4 ming kishi (2008 y) yoki viloyat aholisining 19,5% dan iborat. Aholi juda zich joylashgan. Har bir km² hududga 5221 kishi to'g'ri keladi. Namangan shahri nafaqat Farg'ona vodiysi yoki O'zbekistonda balki Markaziy Osiyo shaharlari o'rtasida ham o'xshashi yo'qdir.

Shahar rel'efi asosan tekislik mintaqa xarakteriga ega. Yer yuzasi shimoldan janubga va g'arbdan sharqqa tomon pasayib boradi.

Iqlimi keskin kontinental bo'lib, janubiy, ya'ni tekislik mintaqasida subtropik. Yoz oylarida harorat keskin ko'tarilib, havo quruq va issiq bo'ladi.

Shahar Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, dengiz satxidan 450 metr balandlikda joylashadi.

Namangan shahri viloyatning markazi hisoblanib, umumiy maydoni 0,083 kv.km. yoki viloyat hududining 1,11% tashkil qiladi. Shahar axolisi 2016 1 yanvar xolatiga 486,7 ming kishi (2016 y) yoki viloyat aholisining 19,5% dan iborat ga yetgan. Hozirgi kunda shaharda 81 ta maxalla fuqarolar yig'inida 116 905 ta oila istiqomat qiladi.

SHaharda 20 dan ortiq millat vakillari yashaydi. Axolining 95,9 foizini o'zbeklar tashkil etadi. Axolining zichligi 1.kv kilometrga 5760 kishi to'g'ri keladi.


Ma'lumki, Namangan shahri mamlakatimizning boy tarixga, yuksak darajada rivojlangan moddiy va ma'naviy madaniyatga egaligi bilan ajralib turadi. Mahdum A'zam, Mavlono Lutfilloh, Mulla Bozor Oxund, Boborahim Mashrab va boshqa allomalar jahon fani va madaniyatiga munosib hissa qo'shgan mutaqqakkirlardir.

SHuningdek, Mulla Bozor Oxund va Mavlono Mavlaviy maqbaralari, yirik ziyoratgohlar vatanimiz o'tmishining g'oyat pok tarixidan guvohlik berib turadi.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi bilan Namangan shahri viloyat iqtisodiyotida, ijtimoiy – madaniy hayotida bozor munosabatlariga o'tish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda juda katta ishlar ro'yobga chiqardi. Bugun, Namangan shahri yirik qurilish maydoniga aylandi. Uning ko'cha va mavzellarida chekka hududlarida zamonaviy sanoat korxonalari, infratuzilma ob'ektlari, yangi turar joylar, ta'lim muassasalari – zamonaviy maktablar, akademik litseylar va turli yo'nalishdagi iqtidorli bolalar litseylari, sport inshootlari, o'yingohlar, kollejlari qad ko'tardi. Natijada, viloyatning markazi ya'ni Namangan shahri tanib bo'lmas darajada tezlik bilan o'zgarmoqdaki bu aholining turmush darajasi, madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy tafakkuriga ham ijobiy ta'sir etmoqda. Namangan viloyatining tabiiy-geografik shart-sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlari, boy tarixiy taraqqiyoti, aholisi, demografik jarayonlari va mustaqillik ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlardan bilish mumkin.

Namangan shahriga hududiy ichki mahsulotning 61,4 %, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatining 41,0% va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatining 10,1% to'g'ri keladi. Bu xususiyat uning «shahar-qishloq» holatini ifodalasa, ayni vaqtda viloyat aholisining 60% dan ortig'i tortilgan (1,5 mln.dan ortiq aholi kiruvchi) o'ziga xos megopolis hamdir. Namangan shahri shimolda Kosonsoy va Yangiqo'rg'on, g'arbda To'raqo'rg'on, janubda Namangan tumani va sharqda Uychi tumani (Uchqo'rg'on tumaniga qadar arg'amchisimon tarzda qishloqlar bir-biri bilan qo'shilib ketgan) bilan chegaralanadi. Ayni vaqtda Namangan shahri uchun chegaradosh tumanlar bilan g'oyat intensiv kunlik mehnat va ta'lim migratsiyasi va hududiy qo'shilish jarayoni xosdir.

Mustaqillik yillarigacha bo'lgan davrdagi aholi tabiiy harakatining tahlili shuni ko'rsatadiki, Namanganda aholi o'ziga xos, ayni vaqtda respublikaning qator qishloq xo'jalik rayonlariga o'xshash rivojlanish bosqichini bosib o'tdi. Viloyatning agrar xo'jalikka ixtisoslashganligi, urbanizatsiya darajasining



yuqoriligi, bu joyda aholi tabiiy o'sishining yuqori darajada saqlanib qolishiga sabab bo'ldi.

Insonning atrof-muhit bilan munosabatlaridan qat'iy nazar avlodlar almashinishi, aholining ko'payish jarayonini barqaror saqlash masalalari doimo muhim ahamiyat kasb etadi.

Xayotning beto'xtovligi ikki qarama-qarshi oqimning o'zaro nisbati bilan belgilanadi. Bu tug'ilish va o'lish oqimlaridir. Jamiyatni doimiy mavjud bo'lishi uchun bu ikki oqim muvozanatda bo'lmog'i kerak. Agar tug'ilish o'sishga nisbatan kam bo'lsa, insoniyat zavolga yuz tutadi. Buning teskarisi bo'lsa aholining tez ko'payishi ijtimoiy, iqtisodiy ekologik imkoniyatlar uchun zo'riqishni keltirib chiqaradi. SHuning uchun xam bu vazifaga katta ijtimoiy quvvat sarflanadi.

Insonning boshqa tirik organizmlardan ajratuvchi ongining rivojlanib borishi, insonni tabiat qonunlariga to'la-to'kis bosh egib yashashdan xalos etdi. Kishilar tabiat ne'matlaridan mumkin qadar ko'proq foydalana boshladilar. Bu esa "ijtimoiy qalqon" xosil bo'lishini ta'minladi. Inson ongining keyingi rivoji, tafakkurining o'sishi insonga tabiatni ko'pchilik qonunlari ustidan hukmronlik qilish va boshqaruv imkoniyatini yaratdi. Mana shu sabablar yuzasidan insonlarning o'rtacha yoshi 75-80 yilga yetdi.

Kishilarni o'rtacha yashash yoshini uzayishi yoki qisqarishi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) sabablarga bog'liq bo'ladi. Bu sabablar to'la o'rganilmaganligi, kerakli chora-tadbirlarni yetishmasligi 200 yillar oldin aholini o'rtacha yoshi 35 yildan oshishga yo'l qo'ymas edi. Hozirda inson o'zining ibtidoiy ajdodiga faqat biologik xususiyatlari bilangina o'xshaydi. Ya'ni insoniyat qanday taraqqiyot bosqichida yashamasin o'z biologik funktsiyalarini saqlab qoladi. SHu sababli insonni umri ma'lum vaqt bilan cheklangan.

Inson sonining dunyo bo'yicha oshib borishiga ijtimoiy muammolarni bir qadar hal etilgani sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan ba'zi ekologik muammolarni o'zi ham sababchi bo'lmoqda. Masalan: Rivojlangan mamlakatlarda sog'liqni saqlashni rivojlanishi o'rtacha yoshni oshirib, o'lim sonini kamaytirdi. Rivojlanmagan mamlakatlarni ko'pchiligida esa o'lim sonini kamaytirdi.

Rivojlanmagan mamlakatlarni ko'pchiligida esa ijtimoiy madaniyatni pastligi tug'ilishni ko'p bo'lishini va noqonuniy bolalar soni ortishi sababchi bo'lyapti.

So'nggi yillarda Namangan shahrida demografik rivojlanish sur'atining o'sish jarayoni davom etmoqda. SHahar aholisi tabiiy harakatining asosiy ijobiy tomoni shundaki, mustaqillik yillarda qator iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay uni ijtimoiy muhofaza qilish, ayniqsa aholiga nomoddiy ishlab chiqarishga keng yo'l berilganligi xususan, tibbiy xizmat ko'rsatish va sog'lig'ini nazorat qilish ishlari yaxshilandi. Natijada, aholi o'rtasida o'lim darajasi ancha pasaydi, o'rtacha umr ko'rish biroz oshdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaharda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgara borishi barobarida hududlarda aholi tabiiy harakati xususiyatlari ham turlanib bordi. Ma'lum yillar oralig'ida barqaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning qisqa muddat ichida barham topa borishi, ayniqsa chegaradosh tumanlar ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, sanoat tarmoqlari sust rivojlanayotgan vaqtda xizmat ko'rsatish sohalarining asosiy o'rniga ko'tarila borishi oqibatida Namangan shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida boshqa shaharlardan ajralib turishiga sabab bo'ldi.

Axoli o'sishining progressiv usuli tugilish ko'rsatkichi bo'lib, 2014 yilda viloyat ko'rsatkichidan yukori Namangan shaxrida 26,6, tashkil qildi.

2014 yilda viloyatda tabiiy o'sish ko'rsatkichi 19,9 ni tashkil qilgan bo'lsa, Namangan shaxrida esa 21,5 yetgan.

Jadval 2

Namangan shahrida axoli sonini tug'ilishi, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar nomi	2014 yil	2016 yil
1	Axoli soni	482,8	486,7
2	Tugilish har 1000 axoliga	26,6	26,9
3	CHaqaloqlar o'limi har 10000 tirik tugilganlar soniga nisbatan	9,8	10,7
4	O'lgan onalar soni	5	4,7
5	Onalar o'limi har 100000 axoliga nisbatan	14,0	12,2
6	Umumiy o'lim	4,4	4,7
7	Tabiiy o'sish	21,5	19,9

SHahar aholi manzilgohlarida aholi sekin ko'payib bormoqda. Bunda, ushbu manzilgohlarda aholi tabiiy ko'payish sur'atlarining keskin kamayishi emas, migratsiya katta o'rin tutmoqda.

Namangan shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasini bevosita ularda yashayotgan aholi soni hamda uning o'sish sur'atlaridan ham bilsa bo'ladi.

Namangan shahrida demografik yuk, vodiy tabiatiga antropogen bosimning ta'siri nihoyatda yuqoriligi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, respublikamizda so'nggi o'n yil mobaynida ba'zi bir yuqumli xastaliklar batamom tugatilib, boshqalari esa sezilarli tarzda kamaygan. Ammo aholi orasida umumiy kasallanganlar soni birmuncha ortib bormoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda respublikamizda butun jahonda ommaviy tus olayotgan xavfli o'sma xastaliklari, endokrin va qon aylanish tizimi, shuningdek, nafas olish bilan bog'liq kasalliklar bilan og'rigan bemorlar soni ko'pchilikni tashkil etmoqda.

Xususan, bunday nozogeografik vaziyatning o'ziga xos jihatlari turli xil tabiiy sharoitda, masalan, hududi asosan adir va yarim tekislikdan tashkil topgan Namangan shahrida yaqqol namoyon bo'ladi. SHu nuqtai nazardan Namangan shahri o'zining tabiiy, tarixiy, iqtisodiy, shuningdek, ijtimoiy jihatlari bilan alohida ajralib turadi.

Oxirgi paytlarda viloyatda, qolaversa butun mamlakat va jahonda tabiiy muhitning ifloslanishi, aholi yashash sharoiti bilan bog'liq muamolarning yuzaga kelishi va shu kabi salbiy holatlar tufayli turli-xil kasalliklarning ortib borish hollari kuzatilmoqda. Bunday kasalliklar ichida ayniqsa qon aylanish, nafas olish va ovqat hazm qilish a'zolari hamda asab tizimi va xavfli o'sma xastaliklari yetakchi o'rin tutmoqda.

Namangan shahri bo'yicha mavjud kasalliklar geografiyasi tahlil qilinganida uning viloyatning boshqa xududlaridan o'ziga xos jihatlari bilan alohida ajralib turishi ko'zga tashlanadi. Jumladan, bu yerda qon va qon hosil qiluvchi a'zolar bilan bog'liq kasalliklarning keng tarqalganligi ham aynan fikrimiz dalilidir. Agar viloyat aholisi orasida uchraydigan kasalliklar qatoriga yurak va qon aylanish

tizimi kasalliklarini kiritsak, Namangan shahrida ularning o'rnini qon hosil qiluvchi a'zolar (ko'mik, taloq, jigar va h.k.) bilan bog'liq kasalliklar egallaydi.

O'z salmog'i jihatidan qon va qon hosil qiluvchi a'zolar xastaliklaridan keyingi o'rinda nafas olish a'zolari xastaliklari turadi. Bunday kasalliklar bilan og'rigan bemorlar soni Namangan shahridagi xolati keskinroq vaziyatda.

Ma'lumotlarga asoslangan holda shunday xulosa qilish mumkinki, mazkur kasalliklarga chalinganlar soni shaharning sanoatlashgan hududlarida hamda transport tugunlarida ko'proq uchraydi.

Ma'lumki, Namangan shahri atrofi va unga yaqin hududlarda qadimdan ayrim yuqumli xastaliklar ko'p uchraydigan mintaqalardan biri bo'lib kelgan. SHu xususdagi ma'lumotlar ko'plab olimlar va sayyohlar tomonidan yozib qolingan manbalarda uchraydi. CHunonchi, Abu Ali ibn Sino tomonidan yozilgan asarlarda (IX-X asrlar) ham mazkur hududda keng tarqalgan yuqumli kasalliklarga alohida urg'u berilgan. Keyinchalik (XV asr) Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining «Boburnoma» asarida o'lkada keng tarqalgan yuqumli kasalliklar hamda ushbu tabiiy sharoitning o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil fikrlar bildirgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qadimda Namangan shahri har xil yuqumli kasalliklar keng tarqalgan hududlardan biri bo'lgan. Bunday kasalliklar orasida ayniqsa teri tanosil kasalliklari ko'payib bormoqda. Agar viloyat bo'yicha aholining zahm va so'zakka chalinish holatini shahar va tumanlar bo'yicha tahlil qilsak, eng yuqori ko'rsatkich ko'proq aholi ancha zich va atrof-muhit ifloslanganlik holati yuqori hududlarga to'g'ri kelishini ko'ramiz.

Viloyat hududida eng yirik sanoat markazi sifatida Namangan shahrini kiritish mumkin. Ularning ko'pchiligi (to'qimachilik, tikuvchilik, meva-konserva zavodi va boshqalar) eng avvalo Namangan shahri va uning atrofida (aglomeratsiyasida) to'plangan. Ushbu tarmoqlarning viloyatning asosan bir necha hududlarida mujassamlashganligi bu joylarda yashovchi kishilar salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. SHovqin, atrof-muhitning ifloslanishi, turli xil noxush holatlar, shuningdek, viloyat ziyolilarining ham shu markazlarda faoliyat ko'rsatayotganligi kasb va boshqa turdagi xastaliklarni keltirib chiqaradi.

Mintaqa iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan yana biri yengil sanoat bo'lib, uning 10 dan ortiq korxonalari mavjud.

Namangan shahrida oziq-ovqat sanoati korxonalari: yog'-ekstratsiya, konserva, qandolat, vino, makaron fabrikalari, go'sht, sut va non kombinalari bor. Agar mazkur sanoat markazlarini tibbiy geografik jihatdan baholaganda shuni alohida ta'kidlash joizki, aynan mana shu hududlarda qon va qon hosil qilish, nafas olish va ovqat hazm qilish a'zolari bilan bog'liq xastaliklar ko'p miqdorda uchraydi. Aholi va sanoat tugunlarining o'ta zichligi, qolaversa, transport to'rining ham aynan shu hududlar tig'iz joylashuvi yuqoridagi xastaliklarni yanada avj olib borishiga zamin yaratmoqda.

Inson salomatligini ta'minlovchi asosiy manbalar atrof-muhit, havo, suv va tuproqdir. Lekin ularning shahardagi hozirgi ahvolini qoniqarli deb bo'lmaydi. Viloyat tabiatni muhofaza qilish tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, atmosferaga chiqarilgan zaharli moddalar hisobiga kasallanishning asosiy sababi sifatida nomoyon bo'ladi. Mazkur ko'rsatkich ayniqsa sanoat markazlari atrofida yanada yuqori. Tabiiyki, bunday ekologik muhit aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, Sirdaryo daryosi orqali keladigan oqova va zovur suvlari, unda erigan tuz va boshqa kimyoviy moddalarning shahar xududi atrofida to'planib qolayotganligi o'lka ekologik vaziyatini yanada keskinlashtirmoqda. Bu hol ayniqsa chiqindi suvlar tashlanadigan zovurlar yaqinida keng tarqalgan.

Ma'lumki, epidemik jarayonlarning o'tishiga ijtimoiy omillarning tabiiy omillardan ko'ra ta'siri ko'proq. Bu o'rinda aholi turmush sharoitlari: turar-joylar holati, aholi zichligi, kanalizatsiya, toza ichimlik suvi va boshqa maishiy inshootlarning bor yo'qligi, aholining moddiy farovonligi, oziq-ovqat tarkibi, tibbiy sanitariya madaniyati, migratsiya jarayonlari va sog'liqni saqlash sohasi ishlarining ahvoli (umumiy qilib aytganda, ijtimoiy infrastruktura tizimi) muhim mazmunga ega. Ushbu omillarning har biri aholi salomatligiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. CHunonchi, shahar aholisining toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasi yetarlicha emas.

SHunday qilib, Namangan shahrida kishilar turmush darajasi va aholi salomatligini yaxshilash, avvalo mamlakatimiz rahbariyati tomonidan belgilangan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish, xalq xo'jaligini zamonaviy talab hamda ehtiyoj doirasida rivojlantirish va hududiy tashkil etish, ekologik muhit musaffoligini ta'minlash kabi masalalar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu muammolarni ilmiy asosda yechish nafaqat Namangan shahrida, qolaversa, viloyatning barcha mintaqalarida sog'lom avlodni voyaga yetkazish, aholining moddiy va ma'naviy farovonligini oshirish imkonini beradi.

2.2. Namangan shahrida tabiatdan oqilona foydalanishni optimallashtirish yo'llari

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi (2016-yil 18-yanvar) ma'ruzasida jahon moliyaviy inqirozi davom etayotgan bir paytda O'zbekistonda iqtisodiyot o'sishining barqarorligi va yuqori sur'atlarga egaligi hamda makroiqtisodiy muvozanatga erishilganligi qayd etildi. Buni 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy o'sish bashoratlari bo'yicha O'zbekistonning eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olganligining o'ziyoq tasdiqlab turibdi. Umuman aytganda Prezidentimiz rahbarligida Respublikamiz erishgan yutuqlardan har birimiz bahramandmiz va bundan qalbimiz g'urur tuyg'usiga to'ladi, Vatanimiz mustaqilligining qutlug' 25 yilligi keng nishonlanadigan 2016 yilga belgilangan maqsad va rejalarni to'la bajarishga ilhomlantiradi.

Biron bir regionda biror iqtisodiy soha bo'yicha izlanishlarning eng muhim vazifasi shu soha va uning qismlarining eng optimal variantlarini izlab topish hisoblanadi. SHu sababli Namangan shahri tabiatidan oqilona foydalanishni optimallashtirishda birinchi navbatda shahar ichkarisiga kirib kelayotgan barcha turdagi;

- Tabiat in'om etgan resurslarni ishlab chiqarishga qaratish,
- Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash,
- Tabiiy resurs va boyliklarda maqsadli foydalanishni tashkil etish,
- Ilg'or xorijiy texnologiyalar bilan boyitilgan so'ngi zamonaviy infratuzilma jixozlarini joriy qilish,
- Sanoat va maishiy chiqindilarni qayta ishlab chiqarishga yo'naltirish,
- Yer va suv resurslaridan samarali va tejimli ishlab chiqarish mehanizmlarini shakllantirish,
- SHaharda sanoat tarmoqlarini xududiylik tizimlarini tashkil etish,
- Xizmat ko'rsatish sohalarini tartibli va optimal xolatda rivojlantirishga e'tibor qaratish,
- Rekreatsion, dam olish maskanlarini qayta rekonstruktsiya qilish va zamonaviy infratuzilmalar bilan boyitish,
- Yo'l-transport tizimlarini zamonaviy tipda ta'mirlash va xizmat sifatini oshirish,
- SHahar ichkarisiga kiritilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi maxsulotlarini sifatiga e'tibor berish lozim.

Viloyatimiz markazi Namangan shahrida sanoatni keskin rivojlantirish imkoniyati boshqa viloyatimizdagi shaharlardan katta miqdorda farq qiladi. CHunki, Namangan shahriga yaqin bo'lgan tumanlardan xom ashyoni olib kelish va jo'natish uchun kerakli transport tugunini rivojlanganligi, malakali ishchi kuchlari va iste'molchilarni yetarliligi, energetika ta'minotini yaxshi yo'lga qo'yilganligi va boqa xususiyatlar iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash lozimki, viloyatimizning tabiiy resurslari chegaralangan. Tog'-kon sanoati uchun imkoniyat o'ta darajada past. SHuning uchun qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash asosiy yo'nalish bo'lib qoladi. Bunda meva va sabzavotni quritish va qadoqlashni rivojlantirish muhim. Ammo bundan boshqa rezervlar ham yo'q emas. Misol uchun, viloyatimizda har yili katta miqdorda qora

va rangli metallar yig'iladi. Uni o'zimizda qayta ishlashni tashkil etish ko'plab yangi ish o'rinlarini yaratishga imkon beradi. Bunda mashinasozlik zavodi va boshqa korxonalarning imkoniyatlaridan foydalanish ham mumkin.

Viloyatda turizmni rivojlantirish, rekreatsion, dam olish maskanlarini yanada salohiyatini oshirishda Namangan shahrini o'rni o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Namangan shahar "Z.M.Bobur" nomli madaniyat va istirohat bog'i. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Namangan shahriga tashriflari va undan so'ng 2009 yil qabul qilingan 1170-sonli qarorlari asosida bog' davlat dasturiga kiritilib, 2009 yilda qayta loyixalashtirildi va o'sha yilning oktyabr oyida rekonstruktsiya ishlari boshlab yuborildi. Bog'dagi 26-ta talabga javob bermaydigan xizmat ko'rsatish ob'ektlari buzib tashlandi. Loyixa qiymati 4 mlrd. 800 mln so'mdan, 3 mlrd 300 mln so'mlik qurilish montaj va obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Bugun bog'da 6 ta choyxona va oshxonalar, 9 ta muzqaymoq pavilonlari, shaxmat-shashka klubi, 27 ta zamonaviy attraktsionlar va boshqa ko'plab ko'ngilochar ob'ektlar xizmat qilmoqda. Bog' xududida 1 gektarlik 1,5 km irrigatsiya tarmoqlari, 1 ta zamonaviy favvora ishlab turibdi. Bog'da ochiq estrada maydoni, 400 tomoshabinga mo'ljallangan amfiteatr bunyod etilmoqda. Bog' moliyaviy jixatdan to'la o'z xarajatlarini qoplayapti. 2014-yilda 95007 mln.so'm daromad rejalangan bo'lib, 96000 mln so'm qilib bajarildi. Shundan bog' balansidagi attraktsion va o'yin qurilmalaridan 64000 mln.so'm, ijara va boshqa tushumlar xisobidan 32000 mln.so'm daromad olindi.

Bundan tashqari, "Kamolot" yoshlar madaniyat va istirohat bog'i. Bog'ning bosh reja loyihasi «Davarxitekqurilish» qo'mitasi bilan kelishilgan holda viloyat arxitektura bosh boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan. Bog' hududida loyiha asosida qurilish ishlari davom etmoqda. Jumladan, milliy uslubda muzqaymoq pavilboni, 50 o'rinli kafe binosi foydalanish uchun topshirildi. Bog' atrofiga 640 metr panjara o'rnatildi va bog' darvozasi qurildi. Bog' hududida ichimlik suvi va kanalizatsiya ishlari bajarildi. Bog' hududida 4500 m kv plitkalar o'rnatildi. 3000 m kv asfalt yotqizildi. 2,6 ga maydondagi shag'alli qoplamalar chiqarilib, o'rniga tuproq tashlandi. Irrigatsiya tarmoqlari 2000m LI-40 va LB latoklari o'rnatildi.

Bog'ning yuqori qismida chiqish zinapoyasiga marmar terish ishlari yakunlandi. Navbahor stadionidan odamlar chiqib ketishi uchun zinapoyalar qurilishi tugatildi. 3 ta xorij attraksionlari olib kelib o'rnatildi. Jami harajatlar 1519154720 so'mlik xisobotga olingan, hamda 171561200 so'mlik xisobotga olinmagan ishlar bajarildi.

Namangan shahar "Kichkintoy" bolalar bog'i. Namangan shahar A.Temur ko'chasi 2-uyda joylashgan "Kichkintoy" bolalar bog'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1170 sonli qarori asosida Namangan shahar xokimligining 500-sonli qarori bilan 2010 yil 13 avgustda tashkil etilgan. Rekonstruktsiya qiymati 2 mlrd, 400 mln so'm. Bog'ning bank xisob raqami mavjud. Bog' xududida 4 ta muzqaymoq shaxobchasi, 1 ta restoran, 1 ta "Bouling" sport klubi, 1 ta sport zal va amfiteatr mavjud. Bog' xududida 900 tupdan ziyod 15 turdagi manzarali daraxtlar o'stiriladi. Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mustaqilligimizning ilk yillaridan mamlakatimiz fuqaro aviatsiyasini jahon andozalari darajasiga ko'tarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz aeroportlari tubdan rekonstruktsiya qilinib, eng zamonaviy texnik uskunalar bilan jihozlandi. "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasi parki yangi havo kemalari bilan to'ldirib borilmoqda. Bu dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlari bilan havo transporti aloqalarini yo'lga qo'yish imkoniyatlarini kengaytirib, xalqaro qatnovlar soni hamda yo'lovchi va yuk tashish hajmining tobora o'sib borishi, pirovardida iqtisodiy taraqqiyotimizga xizmat qilmoqda.

"O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasining mustaqillik yillaridagi rivojlanish tendensiyalarini Namangan aeroporti misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Davlatimiz rahbari 2004-yilda viloyatga tashrifi chog'ida Namangan aeroportini ham ko'zdan kechirib, uni rekonstruktsiya qilish bo'yicha qimmatli maslahat va tavsiyalar bergan, aeroport har qanday shahar yoki viloyatning darvozasi, ta'bir joiz bo'lsa, uning yuzi ekanini ta'kidlagan edi. 2005-yil Investitsiya dasturi doirasida qisqa vaqt ichida tubdan rekonstruktsiya qilingan Namangan aeroporti Farg'ona vodiysining ko'rkam, muhtasham va zamonaviy havo darvozasiga aylandi. –Prezidentimiz tashabbusi bilan hududiy va xalqaro

aviatashish bozorida mavqeimizni yuksaltirish maqsadida “O‘zbekiston havo yo‘llari” Milliy aviakompaniyasi tomonidan amaliy chora-tadbirlar ko‘rildi. Natijada Namangan aeroporti bugungi zamonaviy qiyofasiga ega bo‘ldi. Rekonstruksiya sharofati bilan xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligi oshib, uchuvchi va aeroport ishchi-xizmatchilari, eng muhimi, yo‘lovchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi, parvozlar xavfsizligi kuchaytirildi. Dastlabki bosqichda aerovokzal majmuasi kapital rekonstruksiya dan chiqarildi. Ilg‘or arxitektura loyihalari asosida oyna, alkofon, marmar kabi qurilish va bezak ashyolaridan samarali foydalanish natijasida aerovokzal fasadi ko‘rkamlashdi, qishin-yozin yam-yashil bo‘lib yashnab turadigan maysalar, gullar, rango-rang chiroqlar aeroport old maydoniga o‘zgacha go‘zallik va fayz bag‘ishladi. Shuningdek, soatiga ikki yuz kishiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega aerovokzal ichkarisida katta hajmdagi bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Bu yerda yo‘lovchilar uchun alohida zallar tashkil qilindi. Aviachiptalar sotish zali, valyuta ayirboshlash, pochta, onalar va bolalar xonasi, oshxona, bar kabi infratuzilma shoxobchalarida yo‘lovchilarning tegishli xizmat turlaridan foydalanishlari uchun barcha shart-sharoit yaratildi. Bugungi kunda aeroportda yo‘lovchilarni ro‘yxatdan o‘tkazishda DCS avtomatlashtirilgan dasturi joriy qilingan, xizmat ko‘rsatishning barcha bosqichlari kompyuterlashtirilgan. Rekonstruksiya jarayonida parvozlar xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi texnik-texnologik modernizatsiya ishlariga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, havo transporti harakatlarini boshqarish tizimining radiotexnik va radiolokatsion uskunalari yangilandi. Videokuzatuv tizimi joriy etildi. Aeroport samolyotlarga xizmat ko‘rsatuvchi maxsus texnika, avtotransportlar bilan ta‘minlandi.

Yuqorida ko‘zda tutilgan tabiiy-ekologik omillar tizimini yaxshilash borasidagi tadbirlarni amalga oshirish bilan bir qatorda Namangan shahar aholisining mavjud tibbiy muassasalar va xodimlar hamda boshqa turdagi tibbiy vositalar bilan ta‘minlanganlik darajasiga ham alohida e‘tibor qaratish zarur. SHu bilan birga tibbiy va ekologik ta‘limni, aholining ekologik madaniyatini rivojlantirish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, mustaqillik yillarda mamlakatimizda aholi salomatligini tubdan yaxshilash va muhofaza qilish, shuningdek, ularga tibbiy xizmat ko'rsatish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1998 yil 12 iyunda respublikamiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini 1998-2005 yillarda isloh qilish to'g'risi» dagi farmoni aynan shu haqdadir.

Yuqorida ko'rsatilgan tabiiy-ekologik va iqtisodiy-ijtimoiy omillar majmui borasidagi tahlillar bizga shaharning kelgusidagi istiqbollarini ekologik jihatdan baholashga yordam beradi.

Namangan shahrida keyingi yillarda milliy transport mustaqilligi yuzaga kelgandan so'ng atmosfera ifloslanish darajasining ko'rsatkichlari birmuncha yuqori o'rinlarni egallab bormoqda. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, hududda sanoat tarmoqlari, shuningdek transport harakatining jadalligi uning havo tarkibini ifloslanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, tabiiy landshaftlari, endemik o'simlik va hayvonot olami vakillari kuchli ta'sirga uchragan. Sababi-hudud viloyatning, eng qadimgi aholi manzilgohlari qatoriga kiradi. Asrlar davomida tabiiy landshaftlari o'rnini inson tomonidan bunyod etilgan madaniy landshaft ko'rinishlari egallab borgan va shahar tabiati viloyatning qolgan hududlariga nisbatan kuchli o'zgartirilgan.

Hudud tabiatining keskin o'zgarib ketishi, landshaft ko'rinishlarini inson xohish-istaklariga mos holda betinim o'zgarishga yuz tutishi davrlar o'tishi bilan ekologik bo'hronlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayni chog'da kishilar salomatligi va kasallanishi bo'yicha hudud viloyatda eng oldingi o'rinlarni, ayrim tur xastaliklar bilan kasallanganlar soni bo'yicha esa hatto respublikada yuqori ko'rsatkichlarni egallaydi.

2.3. Namangan shahrini tabiiy ekologik nuqtai nazardan rayonlashtirish masalalari

Keyingi vaqtlarda ko'pgina shaxarlar qaytadan qurilmoqda, yangi-yangi shaxarlar paydo bo'lmoqda. Bularning xammasi yangi zamonaviy loyixalar ishlab

chiqish va ularni amalda joriy etishga da'vat etdi. Ekologlar va gigienistlar oldiga yangi loyixa va qurilishlarni ekologik talablar darajasida amalga oshirish va nazorat qilish vazifasini qo'ydi.

Uy-joy qurish va ularni xalq talabiga javob beradigan holda bo'lishi yuzasidan davlatimiz ko'p qarorlar chiqardi. Asosiy maqsad ko'p turar joy qurish va sifatiga e'tibor berishdir. Yangi qurilayotgan uy va shaxarlarga yangi ekologik talablar qo'yiladi: ya'ni, shaxarlar havosi toza, sanoat korxonalaridan uzoqroqda qurilgani ma'qul, bundan tashkari, binolarni zich qilib qurmaslik, shaxar o'rtasida baland binolarni va shaxar chetiga past bo'yli binolarni qurish, shaxar xududida joylashgan kichik va o'rta sanoat korxonalari bilan turar joy binolari o'rtasida ekologik ximoya zonalarini tashkil etish, shaxarni ko'kalamzorlashtirish. SHaxar ko'chalarini shamolni kelish yo'liga qaratib qurish shular jumlasidandir. Oqibatda yangi zamonaviy uylar o'zining ekologik talablarga javob berishi, gazlashtirilganligi, elektrlashtirilganligi, issiq va sovuq suvlar bilan ta'minlanganligi bilan ilgari qurilgan uylardan farq qiladi. SHaxarda aholi zich yashashi hisobiga albatta havo, ochiq suv havzalari ifloslanishi va shovqinni oshishi tayin.

Tabiat muhofazasi va resurslardan oqilona foydalanish hududni landshaft konturlari asosida ma'lum qismlarga ajratish hamda ularda bir xil tipdagi tabiatdan foydalanish tamoyili asosida xo'jalikni majmualari rivojlantirish maqsadga muvofiq. Tabiat boyliklaridan foydalanish, tabiiy va antropogen jarayonlarga qarshi kurashish, atrof-muhitni muhofaza qilish aslida bir tomonga yo'nalgan majmualari, bir-biri bilan uzviy bog'liq hamda taqozo etadigan yagona jarayondir. Tabiat muhofazasi ko'p profilli, keng va chuqur aspektli bo'lib landshaftlarning strukturali dinamik xususiyatlari, tabiatdan foydalanish jarayoni va tabiat hodisalari faolligiga bog'liq. SHu nuqtai nazardan bu amaliy vazifa landshaft konturi yoki ularning guruhi, tabiat muhofazasi rayoni hududida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Buni rayonlashtirish yo'li bilan Namangan shahrining tabiiy ekologik nuqtai nazardan rayonlashtirish lozim. Namangan shahrining tabiiy ekologik jihatdan 5 ta rayonlariga ajratish mumkin: 1) SHimoliy mintaqasi, 2)

G'arbiy mintaqa, 3) Janubiy mintaqa, 4) SHarqiy mintaqa, 5) Markaziy mintaqa. Mazkur rayonlar landshaftlar srukturasi, dinamik holati, ijtimoiy ekologik jihatlari, ishlab chiqarishni atrof-muhitga ta'sir doiralari, axolini tabiatga bo'lgan munosabatlari, resurslardan tejamli foydalanish xarakterlari bo'yicha bir-biridan keskin farq kiladi

Biz quyida ajratilgan Namangan shahrining tabiiy ekologik rayonlariga va tabiatdan foydalanish jarayonida uning muhofazasi masalalariga to'xtalib o'tamiz.

1) SHimoliy mintaqa. Namangan shahrining shimoliy mintaqasida asosan Oromgoh, Go'zal, Mamarasulov, Manguberdi, Adashev hududlari joylashgan bo'lib, haqiqiy adir landshafti o'rnini antropogen landshaftlar juda tez sur'atlarda ta'sir ko'rsatayotgan xududlar sirasiga kiradi. SHimoliy mintaqa tabiatidan foydalanish va tabiiy resurslarni xozirgi kundagi axvoli Namangan viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasini tomonida berilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, ishlab chiqarish va sanoat chiqindilarini aksariyat qismi Oromgoh hududiga (sobiq Samarqand savxoz) ochiq xavzaga axoli yashasha punklari orasida tashlanayotganligi aytiladi. Demak, bu mintaqa doirasidagi axoli yashash qo'rg'onlarini orasida ko'p miqdorda bunday hududlarni uchratish mumkin. Ekologik nuqtai nazardan qaralganda ushbu mintaqa axolisininng nozogeografik vaziyati aynan shu chiqindilar bilan bog'liq muammolarni va kasalliklarni keltirib chiqarayotganligi bilan belgilanadi.

2) G'arbiy mintaqa. Namangan shahrining g'arbiy mintaqasini rayon planirovkasidan ham ko'rish mumkin-ki, bu mintaqa shaharning keng qamrovli va axoli joylashuvining vertikal ko'rinishi yaqqol nomoyon bo'ladigan hamda ijtimoiy ekologik muammolar uzluksiz ravishda ortib borayotgan xududlar sirasiga kiradi. Antropogen landshaftlar ushbu mintaqaning deyarli barcha hududlarini ishg'ol etgan. Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan shahar infratuzilmasini keng miqyosda rivojlantirish masalalariga e'tibor berilishi natijasida ushbu mintaqa tubdan yangi qiyofaga kirib bordi. Mintaqada axoli zichligi, millatlarni turli tumanligi g'arbiy mintaqaga uchun xos bo'lib, ayrim turdagi kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, endikrinolog kasalliklar, yurak qon-tomir

kasalliklari, asab-nerv sistemasi kasalliklari bilan chalingan bemorlarni ko'pligi va axoli orasida tug'ilish nisbati boshqa hududlarga nisbatan kamligi bilan harakterlanadi.

3) Janubiy mintaq. Ushbu mintaqaga Qo'qon, Yangiobod, Marg'ilon, Guldasta, Zarbdor, G'alcha axoli punktlari kirib, mintaq xududining aksariyat qismi antropogen landshaftlarga uchragan. Axoli tomonidan turli xildagi chiqindilarni yo'l yoqalari va anhor bo'ylarida saqlashi tez-tez kuzatiladi. Maxalliy aholi orasida chiqindilarni qayta ishlovchi xususan, qayta ta'mirlovchi va tuzatuv moslamalariga ega bulgan kichik-kichik tsehlar va shunga o'xshash hizmat ko'rsatish sohalari keng rivojlanib borayotgan xududlar sirasiga kiradi.

4) SHarqiy mintaq. Ushbu mintaq o'ziga xosligi bilan boshqa mintaqalardan ajralib turadi. Xususan, mintaqaga xos bo'lgan yangi sanoat korxonalarini kirib kelishi, maxalliy aholi orasida keng miqyosda xunarmandchilikni rivojlanishi, axolini transport sohalari bilan uzluksiz bog'liqligi va yangi turdagi ishlab chiqarish jadallashayotgan xududlar sifatida nomoyon bo'ladi.

5) Markaziy mintaq. O'ziga xos infratuzilmaga ega bo'lgan Namangan shahrining eng markaziy chorrahalarini tutashtiruvchi, sanoat, fan va madaniyat, tibbiyot va san'at rivojlangan, servis xizmatlari yuqori darajada shakllanib borayotgan rekreatsion ob'ektlarni o'z ichiga oluvchi rayon hisoblanadi.



Namangan shahrining ayrim hududlarini yangi shaharsozlik loyihalari asosida ko'rinishi

Namangan viloyati hokimligi tomonidan shaharsozlik sohasidagi, xususan o'rganilayotgan masala yuzasidan qonun hujjatlari talablarini bajarishga, mahalliy hokimiyat organlari, qurilish kompleksi korxonalari va tashkilotlari hamda jismoniy shaxslarning bosh rejalar, aholi punktlari, binolar va inshootlarni rejalashtirish va qurilish loyihalariga rioya qilishi, davlat standartlari, qurilish normalari va qoidalari, texnik shartlar, boshqa normativ hujjatlar talablariga rioya qilishi bo'yicha mas'uliyatini oshirish borasida muayyan ishlar olib borilmoqda.

Keyingi yillarda viloyatda shaharlar, tuman markazlari va shaharchalarning bosh rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga hamda qurilishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Viloyatda 2011-2013 yillarda Oltinkon, CHorkesar, Navbahor, O'nhayot shaharchalari bosh rejalarini ishlab chiqish bo'yicha ishlar olib borilmoqda, 73 ta "Hududlarning arxitektura-reja jihatidan tashkil etilishi"ga oid hujjat bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Xususan, so'ngi yillarda Namangan shahri bosh rejasiga muvofiq «Tinchlik xiyoboni», «G'isht ko'prik» dahasidagi savdo va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi barpo etildi, «Do'stlik buyum bozori» qayta ta'mirlandi, ko'p kvartirali uylar va boshqa inshootlar qurildi. Bundan tashqari, 16 ta bolalar sport inshootlari ob'ektlarida, 2 ta dehqon va buyum bozorlarida, shuningdek 155 ta maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarida qurilish-montaj ishlari olib borildi.

Yakka tartibda uy-joy qurilishi ob'ektlarining bosh rejalarga muvofiqligi monitoringi doimiy ravishda o'tkazilmoqda.

SHuningdek, shaharda tadbirkorlik sub'ektlarini shaharsozlik faoliyatiga, ya'ni ko'p qavatli uylarni, maishiy xizmat, servis ob'ektlarini, mehmonxonalarni qurishga, shuningdek ularning qurilish ob'ektlari yaqinida joylashgan hududlarni obodonlashtirish faoliyatiga jalb etish amaliyoti keng qo'llanilayotgan katta ahamiyat kasb etadi.

SHuning bilan birga shaharsozlik sohasidagi faoliyatda borasida hamon ma'lum kamchiliklar mavjudligi qayd etib o'tildi. Viloyat shahari bosh rejalarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilayotgan ishlarga qaramay, ob'ektlarni joylashtirish bosh rejaga mos kelmasligi holatlari mavjud.

2.5. Namangan shahrida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari

Bugun mamlakatimizda atrof-muhit va aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan ishonchli chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash - olib borilayotgan islohotlarning barcha bosqichlarida davlatimiz siyosatining eng asosiy ustivor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ekologik xavfsizlikni ta'minlashning mukammal huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, ekologik asoslari yaratildi. Bunda iqtisodiyot, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish borasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solinishini ta'minlovchi hamda qonunchilikning ko'pgina tarmoqlari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida ekologik qonunchilikka alohida e'tibor qaratildi

So'ngi 24 yil mobaynida O'zbekiston Respublikasining 51 ta qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 4 ta qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8 ta Farmoni va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 106 ta qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olingan 16 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularga muvofiq:

- yer va suv resurslarini, o'simlik va hayvonot dunyosini, atmosfera havosini muhofaza qilish;
- atrof-muhitning ifloslanish darajasini nazorat qilish;
- tabiiy ob'yektlar holati monitoringini yuritish;
- chiqindilar boshqaruvi va davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish masalalari hal qilinib, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan xo'jalik maqsadlarida oqilona foydalanish tartiblari belgilandi.

Umuman respublikamizda xususan, Namangan shahrida ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi islohotlarning yaqqol misoli tariqasida atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirishga, uni yanada takomillashtirishga, eng asosiysi inson va kelajak avlod hayoti hamda salomatligi

uchun yanada qulay bo'lgan atrof-muhit barqarorligini saqlashga xizmat qiluvchi "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishini keltirishimiz mumkin. Shuningdek, shaharlarda chiqindilar bilan munosabatlarni tartibga solish va qonunchilik talablariga rioya etilishi hamda biologik resurslarni muhofaza qilish va qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari qabul qilindi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida belgilangan tadbirlarni tizimli hamda izchil ta'minlash maqsadida respublika hukumati va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan doimiy ravishda atrof-muhit muhofazasi bo'yicha maqsadli aniq harakatlar dasturi tasdiqlanib, hayotga tatbiq etilmoqda. Shuningdek, "2016-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi dasturi", "2016-2018 yillarda O'zbekistonning ekoturistik salohiyatini mustahkamlash va ekologik turizmni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar" ishlab chiqilayotgani ijtimoiy-ekologik muammolarni kompleks tarzda hal etish yo'lidagi yana bir sa'y xarakatlarimizdan biridir. Shunday bo'lsada, hozirgi kunda O'zbekistonda "Ekologik xavfsiz", "Eko ...", "Bio ..." kabi mahsulotlar xususiyati va sifatini kafolatlaydigan va umumtan olingan turli xil tasvirlardan foydalanishni baholash bo'yicha aniq mezonlar hali mavjud emas.

Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha davlat inspektorlarini Namangan shahridagi faoliyati bo'yicha, atmosfera, suv, o'simlik muhofazasi va chiqindilar bo'yicha jami 10 dan ortiq inspektorlar faoliyat yuritadi. Shunday tariqa tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi inspektorlari bilan birgalikda atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish qonunchiligi talablarining buzilishini aniqlashda 50 dan ortiq jamoat inspektorlari ishtirok etmoqda. Buning natijasida tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ekologik dasturlarning amalga oshirilishida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning ishtirokini ta'minlanib, jamoatchilik ekologik nazorat vazifalari sifatli bajarilishiga xizmat qiladi.

Er kodeksining 56-moddasida esa, bog'dorchilik va uzumchilik uchun yer uchastkalari shaharlarning ko'kalamzor zonasidan yoki boshqa aholi punktlari chegarasidan tashqarida aholi punktlari hududining kengayish istiqbollarini e'tiborga olib, suv resurslari hamda ularga limitlar ajratish imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda zaxira yerlardan ajratib beriladi, deb ko'rsatilgan. Amaldagi yer qonunchiligiga muvofiq, Namangan shahri va posyolkalarning ma'muriy chegaralaridagi barcha yerlar, shu jumladan, zaxira yerlar ham shahar va posyolkalarning yerlari tarkibiga kiritilgan. SHuningdek, 2013 yildan e'tiboran Namangan shahar atrofi zonalarida shahar atrofidagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hududi, aholi dam olish zonolari, shaharni rivojlantirish uchun ham zaxira yerlar ajratildi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda Yer kodeksida kimyoviy yoki radioaktiv moddalar bilan ifloslanish natijasida ekologiya va sanitariya-gigienaga oid belgilangan talablarga javob beradigan mahsulot olish ta'minlanmayotgan yer uchastkalari qishloq xo'jaligi oborotidan chiqarilishi lozim va konservatsiya qilish uchun ularni zaxira yerlar jumlasiga o'tkazish mumkinligi belgilab qo'yildi.

SHu bilan bir vaqtda zaxira yerlar qisqa muddatli loyihalar uchun ishlatilishi mumkin— yer tuzish, topografo-geodeziya, kartografiya, tuproq, agrokimyoviy chora-tadbirlar, geobotanik va boshqa tadqiqot ishlari o'tkazilishi mumkin O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, zaxira yerlarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solish ob'ekti sifatida qaralmasligi to'g'risidagi norma belgilangan.

Endilikda O'zbekiston Ekologik harakati Namangan viloyati xududiy bo'linmasi tomonidan ijro faoliyatini rivojlantirish orqali milliy havfsizlikning ajralmas qismi hisoblangan ekologik havfsizlikni ta'minlash borasidagi O'zbekiston tajribasini qator nufuzli halqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar ilg'or g'oya sifatida o'rganilib shaharda ekologik vaziyatni to'g'ri baxolash bo'yicha keng doiradagi ishlar bajarib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish—ustuvor maqsadimizdir" nomli maъruzasida taъkidlanganidek, "Bugungi kunda

ekologik yo'nalishdagi yuzdan ortiq nodavlat, notijorat tashkilotni birlashtirgan O'zbekiston ekologik harakatidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar oldida katta va ma'suliyatli vazifalar turibdi. Mazkur harakatdan saylangan deputatlar atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid qonunchilikni yanada rivojlantirishga, markazda va joylarda davlat hokimiyati idoralari, shuningdek turli ijtimoiy va boshqa tuzilmalarning bu sohada shu paytga qadar qabul qilingan hujjatlarni so'zsiz bajarish bo'yicha ma'suliyatini oshirish yuzasidan tizimli ishlarni tashkil qilishga ko'maklashishlari lozim". Yangi qonunlarni qabul qilish bo'yicha parlament palatalari a'zolariga atrof-muhit masalalari muhim ahamiyat kasb etishini bildiradi.

Tabiatni muhofaza etish faoliyatini amalga oshirishda asosiy e'tibor Namangan shahridagi sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, ayniqsa sanoat korxonalari ko'p joylashgan mintaqa sifatida, dastavval qulay ekologik vaziyatni ta'minlashga qaratilmoqda. Tabiat atrof-muhitni ekologik barqarorligini ta'minlashda, tabiiy muvozanatni saqlashda rekreatsion bog'lar va turli hildagi yashil daraxtlar katta o'rin tutadi. Namangan shahri florasini samarali va estetik jalb etuvchi yashil o'simliklar bilan yanada boyitish tadbirlari uchun mahalliy byudjet hamda tabiatni muhofaza qilish mahalliy jamg'armalari, mablag'lari hisobidan (har yilgi moliyalanadigan tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining kamida 15-20% miqdorida) moliyalanishi ko'zda tutilmoqda. Bu ezgu ishlarning barchasi Prezidentimiz I. Karimov rahbarligida aholi turmush darajasini yuksaltirish shahar va qishloqlarimiz qiyofasini, halqimizning turmush madaniyatini va zamonaviy dunyoqarashini o'zgartirish maqsadida boshlangan bunyodkorlik ishlarining amaliy ifodasi hisoblanadi.

Namangan shahrida keyingi yillarda bajarilayotgan ishlarni qisqacha taxliliga to'htalib o'tamiz.

1. Umuman olganda keyingi yillarda Namangan shahridagi turar joylarni toza tutishning epidemiologik gigienik jihatlariga katta ahamiyat berilmoqda. Turar joylarning tozaligi, obodonligi, ariqlardan suvlarning oqib turishi, daraxtzor va

ko'kalamzorlarni mavjudligi yuqumli kasalliklarning oldini olishga yordam berishi bizga ma'lum.

Turar joylarni tozaligini saqlash va tashkil qilishda rejali, tashkiliy, sanitar – texnik va xo'jalik tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Bunday tadbirlarni amalga oshirishda sanitariya nazoratini to'g'ri uyushtirishning epidemiologik ahamiyati ham juda kattadir. Aholi turar joylarini toza tutish uchun chiqindi axlatlarni o'z vaqtida yig'ish, olib chiqib ketish va zararsiz holatga keltirish hamda ba'zi bir chiqindilarni qayta ishlash uchun jo'natish ishlari reja asosida bajarilishi Namangan shag'ar kommunal xo'jaligi boshqarmasida.



*Avvalgi chiqindixonalarni umumiy
ko'rinishi*



*CHiqindixonalarni hozirgi kun
ko'rinishi*

1. Insonning kundalik xayotida o'simliklarning ahamiyati juda katta. Chunki o'simliklar muxim tabiiy omil sifatida Yer yuzasida suv oqimiga, bug'lanishiga, tuproqda nam saqlanishida, atmosferaning quyi qismidagi havo oqimiga, shamol kuchi va yo'nalishiga, hayvonlarning xayotiga ham ta'sir etadi. O'simliklar shaharlar mikroiqlimiga ta'sir etib, havosini tozalab, uni kislorodga boyitib turuvchi sanitarik vazifasini ham bajaradi. Namangan hududida manzarali o'simliklarni o't, buta, daraxt ko'rinishidagilari ko'p uchraydi. Hozirda buta va daraxt ko'rinishidagi xushmanzara o'simliklar ko'kalamzorlashtirishda keng foydalanib kelinmoqda. Bu o'simliklarni ko'pchiligi mezofitlar bo'lib, ko'p suv talab qilmaydi.




*Namangan shahriga subtropik hududlardan olib kelingan
hushmanzara darxtilar*

Masalan: CHinor, Qarag'ay, Qora qarag'ay, tol.

1. Saur (biota orientalis) 2. CHinor (Platanus orientalis) 3. Qayrag'och (Tinus) 4. Sada qayrag'och (Ulmus denza) 5. Kashtan (Amkulus) 6.Tol 7.Terak (Populus) 8.Oq qayin. 9. Eman. 10. Akatsiya. 11. Jonli devor hosil qiluvchi o'simliklar keyingi yillarda xorijiy davlatlardan keltirilmoqda.

SHaharlarni ekosistemasi, qulay muhitni yaratililganligi yashayotgan insonlarni o'ziga bog'liq. Kishilar tufayli ko'kalamzorlashtirish vujudga keladi, aholining yashashi uchun qulay muhit yaratiladi.

**Namangan shahrida atmosfera havosini sifatli
nazorat qilish punktlari**



Namangan shaxrida uchta kuzatuv nazorat hududlari mavjud.

- ❖ Nazorat № 2 – A.Xodjaev ko'chasi
- ❖ Nazorat № 3 – Boburshoh mavzesi
- ❖ Nazorat № 4 – To'raqo'rg'on ko'chasi

O'simliklarni ko'p bo'lishi havoda kislorodni ko'p bo'lishiga, kishi ruxiyatiga va xatto ko'rishni mustahkamlanishiga sababchi bo'ladi. O'simlik ko'p shaharlarda havoda chang va boshqa mexanik va kimyoviy aralashmalar kam bo'ladi. SHu sababli shahar ko'kalamzorlashtirilayotganda hisobga olinadi. Namangan shahri xududining 45-50 % maydoni yashil zona, xiyobon, bog' va boshqalarga ajratilmoqda. Yashil zonalar asosan transport qatnamaydigan joyda tashkil etilmoqda. Bizga yaxshi ma'lumki, o'simlikni ko'p bo'lishi tuproq namligini, unumdorligini saqlaydi, havoda ma'lum namlik bo'lishi, yengil ionlar soni ko'payishini ta'minlaydi.

2. Namangan shahrida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va ichimlik suvini maxsus davlat standartlari talabiga javob berishini nazorat qilish, viloyat tabiatni muhofaza qilish bo'yicha Namangan shahri bo'limining suv resurslari nazorati inspeksiyasi tomonidan doimiy ravishda nazoratga olinadi. Suvlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, oqova suvlarni tozalab qayta ishlashni ta'minlashni shahar miqyosida yaxshi yo'lga qo'yish mutasaddi kishilarning birinchi galdagi vazifasidir.

Respublikamizda xam suvdan foydalanish to'g'risida bir qancha qonun va qarorlar qabul qilingan. **Jumladan:**

- 1) 1992 yil 3 iyulda O'zbekiston Respublikasi davlat sanitar nazorat qonuni;
- 2) 1993 yil 6 mayda "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni;
- 3) 1992 yil 7 aprelda O'z. R.V.M. ning "Suv manbalarining suvni muhofaza qilish zonolari haqida" 174-son qarori va boshqalar.

Bundan tashqari qishlok xo'jaligi va uy-xo'jalikda suvni tejab ishlatish maqsadida maxsus o'lchov asboblari o'rnashtirilmokda.

Kelgusida halqimizning sog'lig'i va farovonligining oshishi, suvlardan oqilona foydalanish, ifloslanishdan saqlash, kishilarning suvga nisbatan munosabatlari o'zgarishi uchun ular o'rtasida ekologik tarbiya va bilim berishni kuchaytirish kerak.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Namangan shahrining ekologiyasi va uni optimallashtirish mavzuidagi bitiruv malakaviy ish doirasida Namangan shahrining mustaqillikdan keyingi ekologik holati va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan atroflicha taxlil qilishga harakat qilindi.

Viloyat hududida eng yirik sanoat markazi sifatida Namangan shahrini kiritish mumkin. Ularning ko'pchiligi (to'qimachilik, tikuvchilik, meva-konserva zavodi va boshqalar) eng avvalo Namangan shahri va uning atrofida (aglomeratsiyasida) to'plangan. Ushbu tarmoqlarning viloyatning asosan bir necha hududlarida mujassamlashganligi bu joylarda yashovchi kishilar salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. SHovqin, atrof-muhitning ifloslanishi, turli xil noxush holatlar, shuningdek, viloyat ziyolilarining ham shu markazlarda faoliyat ko'rsatayotganligi kasb va boshqa turdagi xastaliklarni keltirib chiqaradi.

Namangan shahrining ekologik vaziyati, tabiat-inson-tabiat tizimlarini keyingi yillardagi o'zgarishi va antropogen faoliyat ta'sirida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

- Namangan shahrini ekologik xolatini yaxshilashni ta'minlashda tabiiy ekologik qonunyalarni doimiy hisobga olish,
- Namangan shahri aholisini ekologik dunyoqarashi va madaniyatini shakllantirishda ommaviy ahborot vositalari rolini yanada kuchaytirish,
- Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini shaharda joylashuv loyihalarini mukammal xolatda bo'lishini ta'minlash,
- Tibbiy xizmat va axoli salomatligini tiklashda ishlab chiqarish orqali yuzaga kelayotgan maishiy chiqindilarni o'z vaqtida shahar chetlariga chiqarishni ta'minlash,
- SHaharda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini yanada takomillashtirish,
- SHaharda ekologik sof maxsulotlar sotish tartibini qat'iy jonlantirish,

- SHahar xududlarida is'temol qilinadigan suv resurslaridan foydalanishda o'ziga xos normalarni ishlab chiqish,
- Sanoat va transport vositalaridan chiqayotgan is-gazlarni doimiy nazoratdan chiqarmaslik va tegishli chora tadbirlarni olib borish, kabi tavsiyalar berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni. 1992 yil 9 dekabr. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari-T.: Adolat, 1994. 203-204 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni. 1993 yil 6 may. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari-T.: Adolat, 1994. 100-105.
3. O'zbekiston Respublikasining «Alohida muhofaza qilinayotgan hududlar to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, iyun, 1993. 113-116 b.
4. O'zbekiston Respublikasining «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni. 1997 yil 26 dekabr. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari-T.: Adolat, 1998. 73-76 b.
5. O'zbekiston Respublikasining «O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni. 1997 yil 26 dekabr. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari-T.: Adolat, 1999. 60-65 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. -315
7. Abdulqosimov A.A. Tipologiya i klassifikatsiya antropogennyy landshaftov Uzbekistana // Tabiiy geografiyaning regional muammolari. Ilmiy konferentsiya tezislari.-Samarkand, 2002. 6-10 b.
8. Abdullaev O. Farg'ona vodiysi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari.-Namangan, 2000. -281 b.
9. Abdullaev S.I. Sug'orma dehqonchilikning ayrim geografik muammolari // O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 21-jild. -T., 2000. 40-41 b.
10. Axmadaliev Yu.va boshq. Yerdan foydalanishni o'rganishda tarixiy geografik yondashuv // O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy geografik siyosati: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. -Namangan, 2001. 112-113 b.
11. Bobur Z.M. Baburnoma. -T., 1989. 5-20 b.
12. Boymirzaev K.M. Farg'ona vodiysining voha landshaftlari va ularni muhofaza qilish // Namangan, 1994. -S. 69-73
13. Boymirzaev K.M., Nazarov A.A. Farg'ona vodiysi landshaftlaridan foydalanishning matematik modellashtirish usullari // O'zbekiston

Respublikasining mintaqaviy siyosati: muammolar va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 1-qism.- Namangan, 2001. 30-36 b.

14. Boymirzaev K.M., Nazarov A.A. Farg'ona vodiysining landshaft-ekologik muammolari va ularni qulaylashtirish masalalari // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 22-jild. . -T., 2002. 33-35 b.

15. Jumaxonov. SH. Aholi qo'rg'onlari va geoekologik muammolar // Farg'ona vodiysining geoekologik holati, tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilish masalalari. O'zbekiston Respublikasi regional ilmiy-amaliy anjuman materiallari. I-qism.- Farg'ona, 1995. 76-77 b.

16. Mavlyanov G.A., Nurmatov A.N. CHetvertichnye otlojeniya tsentral'noy Fergany. -T.: Fan, - 108 b.

17. Namangan viloyati «Tabiatni muhofaza qilish» qo'mitasi meteriallari. Namangan, 2000.

18. Namangan viloyati yer resurslari boshqarmasi material-lari. Namangan, 2001.

19. Namangan viloyati ekologiyasi.-T.:Universitet, 1996.-68 b.

20. Nigmatov A.N. Ovrajnaya eroziya i texnogenno-narushenno'e zemli Uzbekistana. -T.: TashGU, 1996. –123 s.

21. Nigmatov A.N., Rasulov R.,va boshq. Adirlarda jarlanish va ularga qarshi kurash choralari.- T.: Universitet,2000. –110 b.

22. Rafiqov A.A, Nazarov A.A. Ekologo-geograficheskie osnovy prirodopol'zovaniya predgorno'x geosistem (na primere Ferganskoy doliny) // Vestnik OshGU. Seriya: yestestvennye nauki. № 4. Tr. Mej. Konferentsii.-Osh., Bilim, 2002. -S.

23. Rafiqov A.A. va boshqa: Ekologik xaritalashtirish: metodologik asoslari, mohiyati, turlari, amalda foydalanish masalalari // O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti 21-jild. -T., 2000. 45-46 b.

24. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar. - T.: O'qituvchi. 1997. -110b.

25. Rafiqov A.A. Земельно-водные ресурсы орошаемых районов Uzbekistana i voprosy ix ratsional'nogo ispol'zovaniya // V. kn. Oхrana prirody i uluchsheniya okrujayushchey sredy. -T., 1975. -S. 5-27.

26. Rafiqov A.A. Iqtisodiy ekologik barqaror rivojlanish muammolari // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 22-jild. -T.,2002. 10-14 b.

27. Saidov A. O'zbekistonda sel hodisalari. -T.: Fan, 1971. 6-7 b.

28. Sultonov Yu. Jabborov A. Nazarov A. Farg'ona vodiysi antropogen landshaftlardagi jarayonlar va ularning landshaft dinamikasidagi roli // Tabiiy geografiyaning regional muammolari. Ilmiy konferentsiya tezislari. -Samarqand, 2002. 46-49 b.

29. To'xtaev T., Hamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. - T.: O'qituvchi, 1994. -140 b.

30. Hikmatov F.X., Sirliboeva Z.S., Aytbaev D.P. Tuproq yuvilishi shakllari va suv eroziyasi tasniflari haqida // Geografik ekologiya va tabiatdan foydalanish muammolari. Ilmiy tezislari.- Toshkent, 1999. 78-81 b.

31. SHodimetov Yu.SH. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. -T.: O'qituvchi, 1994. - 140 b.

32. Qozoqov A. Namangan viloyatida ekologik muammolar // Farg'ona vodiysining geoekologik holati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilish masalalari. O'zbekiston Respublikasi regional ilmiy-amaliy anjuman materiallari. I-qism. -Farg'ona, 1995. 46-47 b.

INTERNET SAYTLARI

www.uznature.uz – O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi sayti.

www.un.org/esa/sustdev/ – Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning barqaror rivojlanish komissiyasi sayti.

www.unesco.org – BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti sayti.

www.unep.org – BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi sayti.

www.undp.org – BMTning rivojlanish dasturi sayti.

www.unese.org/env/esd/ – BMTning iqtisodiyot komissiyasi sayti

www.worldresources.org – Jahon tabiiy resurslar sayti.

www.unfra.org – BMTning aholishunoslik dasturi sayti.

www.who.org – Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotining sayti.